

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI**

**MILLIY G'OYA VA MA'NAVIYAT ASOSLARI KAFEDRASI**

**"Himoyaga tavsiya etilsin"**

Ijtimoiy fanlar fakulteti dekani

\_\_\_\_\_ prof. B. Eshov.

“ ” 2019yil

**Mamayusupov Sunnat Akbar o`g`lining**

“5111600 - Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi”

yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

«Zardushtiylikning axloqiy –ma'naviy mohiyati» mavzusida yozgan

**BITIRUV MALAKAVIY  
ISHI**

Talaba \_\_\_\_\_ S.Mamayusupov

Ilmiyrahbar: \_\_\_\_\_ f.f.n. N.O`roqova.

**"Himoyaga tavsiya etildi"**

Milliy g'oya va ma'naviyat  
asoslari kafedrasi mudiri

\_\_\_\_\_ dots. F.Qanoatova.

“ ” 2019yil

**Qarshi - 2019**

## MUNDARIJA

<b>Kirish -----</b>	<b>3</b>
<b>I. Bob.</b> Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” da o’zbek xalqining qadimgi ajdodlari diniy qarashlari va ma’naviy hayoti yoritilishi.	
<b>1.1.</b> Zardushtiylik va uning kelib chiqishi. -----	<b>7</b>
<b>1.2.</b> “Avesto” – ajdodlarimizning qadimgi ijtimoiy – iqtisodiy va ma’naviy hayoti haqida.-----	<b>16</b>
<b>II. Bob.</b> Zardushtiylik va milliy ma’naviy qadriyatlar.	
<b>2.1.</b> Zardushtiylikda axloqiy me’yorlarning yoritilishi. -----	<b>33</b>
<b>2.2.</b> Zardushtiylikda inson ma’naviy qiyoqasining talqini.-----	<b>50</b>
Xulosa. -----	<b>64</b>
Adabiyotlar ro’yxati.-----	<b>66</b>

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbliги.** Millatimiz, xalqimizning tarixiy taraqqiyotini o'rganishga bo'lgan munosabatimiz milliy o'zligimizni anglashga bo'lgan intilishimizning kuchayib borayotganligini ko'rsatmoqda. Mustaqillik yillari millatimiz tarixining, madaniyatining ko'pgina sahifalarini qaytadan ko'rib chiqish, unitilayotgan yoki yo'qolish arafasida turgan ma'naviy merosimizni umumjahon tamadduniga o'zining munosib hissasini qo'shgan buyuk ajdodlarimiz ijodini qayta tiklash davri bo'ldi. Ana shu yillar ichida buyuk ma'naviy – madaniy merosimiz hisoblangan zardushtiylik dini va uning madaniy yodgorligi bo'lgan "Avesto" ni o'rganishga e'tibor kuchaydi. Natijada xalqimiz buyuk ma'naviy merosimiz hisoblangan "Avesto" orqali qadim ajdodlarimizning ijtimoiy- madaniy hayoti, ma'naviy, axloqiy, diniy va badiiy tafakkuridan xabardor bo'ldi. Mazkur madaniy yodgorlik umumjahon madaniyati taraqqiyotiga o'z ta'sirini ko'rsata olgan umuminsoniy qadriyat ekanligi e'tirof etildi.

Mustaqillik yillarida ma'naviy va diniy falsafiy merosimizni tiklash masalasiga mamlakatimizda jiddiy e'tirof qaratilmoqda. "Biz ajdodlarimizning donishmandlik an'analariga amal qilib, ularning bunyodkor g'oyalarini teran anglagan holda, qat'iy islohotlarni amalga oshirmoqdamiz, mamlakatimizning yangi qiyofasini shakllantirish yo'lidan bormoqdamiz"<sup>1</sup>.

I.A.Karimov ta'kidlaganidek, "Bu betakror asarning biz uchun ahamiyati – avvalo uning olis-olis davolarda ham xalqimizning milliy xususiyatlari va fazilatlari umumbashariy qadriyatlar bilan doimo uzviy bog'lanib ketgani"<sup>2</sup> ekanlidigadir.

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning BMT Bosh asambleyasining 72 sessiyasida so'zlagan nutqi. //<http://uz24/uz/politics/shavkat-mirziyoev-bmt>.

<sup>2</sup> I.A.Karimov "Avesto" kitobining 2700 yilliga bag'ishlab barpo etilgan yodgorlik majmui ochilishida so'zlagan nutqi.

Zardushtiylik qadim ajdodlarimiz diniy, axloqiy va falsafiy qarashlari majmui bo'lish barobarida, o'sha davr iqtisodiy, ijtimoiy- siyosiy va ma'naviy – axloqiy hayotini o'zida aks ettiruvchi ta'limot hisoblanadi.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" umuminsoniy qadriyatlar majmui sifatida ajdodlarimizning ma'naviy – madaniy qadriyatları, qarashlari, histuyg'ulari va azaliy orzu-umidlarini ham o'zida jamlagan manbadir. "Avesto" da insoniy axloqning asl mohiyatini tashkil etuvchi buyuk uchlik- **ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal** hamda ularning inson shaxsini kamolotga yetkazishdagi o'rniga alohida e'tibor beriladi. "Avesto"da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uyg'unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog'liq holda ko'rsatilgani ko'p narsani anglatadi. Bu holat insonning ma'naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta'sir o'tkazib kelganiga yana bir bor e'tiborimizni jalb qiladi"<sup>1</sup>- deb ta'kidlagan edi I.Karimov.

Shu o'rinda aytish joizki Zardushtiylikdagi inson kamoloti, uning axloqiy, ma'naviy yetukligini o'zida aks etgan g'oyalar, fikrlar biz yashayotgan davr bilan hamohangdir. Shu boisdan mustaqillik tufayli tarixchilar, faylasuflar, huquqshunoslar Zardushtiylik dini, uning muqaddas kitobi "Avesto" bo'yicha ko'pgina ilmiy ishlarni amalgalash oshirdilar. Ammo hali ham yechimini kutayotgan masalalar ham to'lib yotibdi. Ana shunday masalalardan biri Zardushtiylikda inson axloqi, ma'naviyati masalasidir. Shu fikrdan kelib chiqib aytish mumkinki, Zardushtiylikni o'rganish, undagi shaxs ma'naviyatiga, uning yuksalishiga ta'sir etuvchi fikrlarni bugungi kun nuqtai nazaridan taxlil etish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridandir.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsadi.** Zardushtiylikda olg'a surilgan axloqiy va ma'naviy fikrlar katta falsafiy mazmunga ega bo'lib ular bugungi kunda ham jamiyatimiz taraqqiyotida o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Shundan kelib chiqib bizning maqsadimiz zardushtiylikdagi insonning axloqiy va ma'naviy fazilatlarini

---

<sup>1</sup> I.A. Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008, 32- bet.

shakllantirishga oid fikrlarni milliy davlatchiligidan asoslarini mustahkamlash nuqtai nazaridan har tomonlama tahlil etishdan iborat.

Buning uchun quyidagi **vazifalarni** amalga oshirish lozim:

- Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”ni o’rganib chiqish va tahlil etish.
- “Avesto”da o’z aksini topgan ajdodlarimizning qadimgi ijtimoiy – iqtisodiy va ma’naviy hayoti haqidagi fikrlarni har tomonlama tahlil etish.
- Zardushtiylikning milliy ma’naviy qadriyatlar tizimida tutgan o’rnini o’rganish.
- Zardushtiylikda axloqiy me’yorlarning yoritilishini tahlil etib xulosalar chiqarish.
- Zardushtiylikdagi inson ma’naviyati haqidagi fikrlarni to’plash va yoritish.

**Mavzuning o’rganilganlik darajasi.** Buyuk ajdod larimizning ilmiy merosi tadqiq etilayotgan mavzuni yoritishda muhim manba sanaladi. Xususan, Abu Rayhon Beruniy o’z asarlarida “Avesto” xususida salmoqli mulohazalarni bayon etgan. Istiqlol sharofati bilan respublikamizda zardushtiylik ta’limoti g`oyalarining yangi tomonlarini yoritishda T.Mahmudov, G.Mahmudova, R.Urazova, M.Ergasheva, G`Soatovlarning<sup>1</sup> taqdim etgan ilmiy ishlari va monografiyalari diqqatga sazovordir.

**Mavzuning yangiligi** shundan iboratki, hozirgacha tarixchi olimlar, madaniyat ahli tomonidan Zardushtiylik dini va uning muqaddas kitobi “Avesto” diniy hamda tarixiy manba sifatida juda ko’p marotaba o’rganilgan. Biz esa uning odob- axloq va ma’naviy qirralarini o’rganishga katta ahamiyat berdik. Jumladan:

- Zardushtiylikning vujudga kelish tarixi yaxlit holatda o’rganildi.
- Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” bizgacha yetib kelgan manbalar asosida o’rganildi va yoritildi.
- Zardushtiylikning milliy ma’naviy qadriyatlar tizimida tutgan o’rni masalasi tahlil etildi.

<sup>1</sup> Mahmudov T. “Avesto” haqida. T.: Ma’naviyat. 2000 y.

Urazova R.T. “Zardushtiylikda ma’budalarning funksiyalari va ijtimoiy-tarixiy mohiyati”. Avtoreferat. T.:2017 y  
Ergasheva M.X. “Avesto”dagi falsafiy g`oyalarga sinergetik yondoshuv. Avtoreferat. T.: 2017 y  
Soatov G’. Zardushtiylik madanyati va ma’naviyati. Qarshi. “Nasaf” nashriyoti. 2006 y.

- Zardushtiylikda axloqiy me'yorlarning yoritilishi masalalari tahlil etildi.
- Zardushtiylikdagi inson ma'naviyati haqidagi fikrlarni to'plandi va yoritildi.

**Tadqiqotning oyekti** sifatida “Avesto” asari olindi.

**Tadqiqotning predmeti** “Avesto” da bayon etilgan Zardushtiylikning axloqiy

- ma'naviy mohiyatini yoritib berishdan iborat

**Bitiruv malakaviy ishining nazariy va amaliy ahamiyati** shundan iboratki, undan umumta'lim maktablarida, o'rta maxsus kasb-hunar o'quv yurtlarida o'qitilayotgan “Odobnoma”, “Vatan tuyg'usi”, “Ma'naviyat asoslari” fanlarini o'qitishda foydalanish mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi:** Kirish, 2 bob, 4 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

**I Bob. Zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto” da o’zbek xalqining qadimgi ajdodlari diniy qarashlari va ma’naviy hayoti yoritilishi.**

**1.1. Zardushtiylik va uning kelib chiqishi.**

Bundan qariyib 26 asr muqaddam hozirgi Markaziy Osiyo hududida ulug’ tarixiy shaxs – ilohiyotchi, faylasuf, birinchi kitobiy dinlardan biri bo’lgan zardushtiylik dini asoschisi ulug’ vatandoshimiz Zardusht Sepitoma dunyoga kelgan. (mil. avvalgi 589- 512- yillar)

Abduraxim Erkaevning ta’kidlashicha: “Ilk zardushtiylik to‘g‘risidagi tasavvurlarimiz ancha yuluq, to‘liq emas. U haqidagi ma'lumotni asosan “Avesto”ning “Hata”lar(gata) qismidan olish mumkin. “Avesto”ning eng qadimgi qismi “Hata”lar asotirlari ham neolit davri oxirlarida shakllana boshlagan”<sup>1</sup>.

Diniy rivoyatlarga ko’ra Zardusht Navro’z kunlarining birida kohinlar boshchiligidagi muqaddas ichimlik bo’lgan “xaomo” tayyorlashga kirishgan. Ertatong pallasida u daryodan suv olish uchun qirg’oqqa tushgan. Suv olib bo’lgan, bir yo’la tahoratini yangilayotgan Zardushning ko’ziga qirg’oqda turgan porloq xilqat – “Voxumana” ko’rinadi va uning sehrli nuriga ergashadi. Nihoyat, u ezgu va ulug’ Ahura Mazda huzuriga boradi.

Ahura Mazda o’zining butun borliqni yaratgan xudo ekani haqidagi xabarni bildirish uchun odamlar orasidan Zardushtni tanlaganligini aytadi. Shu kundan boshlab Zardusht Ahura Mazda dinining payg’ambariga aylanadi. Endi u o’z qavmlari orasida Ahura Mazda targ’ib eta boshlaydi. Buning uchun 2 “Gatlar (xatlar) deb, atalgan qo’shiq qilib aytishga mo’ljallangan she’rlar yaratdi”<sup>2</sup>. Zardusht Gatlaridan 17 tasi “Avesto” ning “Yasna” deb atalgan qismiga kirgan va bizgacha saqlangan.

---

<sup>1</sup>Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. Monografiya. T.: Ma’naviyat. 2018 y. 382 b

<sup>2</sup> A. Asqarov. O’zbekiston tarixi. T.: 1999, 104-bet

Urug' va qabila oqsoqollari, mahalliy din va ularning xudolariga sig'inishni qo'llovchi kohinlar o'z manfaatlariga zid keluvchi yakka xudolik – Ahura Mazdani tan olishga qarshilik qildilar. Ana shunday murakkab vaziyatda Zardusht Turonni tark etib, qadimgi Eronning sharqiy viloyatlaridan biriga boradi va Ahura Mazda dinini targ'ib etishni davom ettiradi. Ayni paytda, Zardusht yashagan zamon ibtidoiy munosabatlar o'rnini sinfiy jamiyat, qadimiy davlatchilik egallayotgan, biroq, mahalliy qabilaviy dinlar jamiyat taraqqiyotining bu yangi bosqichiga to'sqinlik qiluvchi kuchga aylanib qolgan davr edi. Jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichi o'zining to'la shakllanishi uchun kuchli mafkuraga muhtoj edi. Bundan tashqari, bu murakkab davrda o'lkaning turli qabilalarini birlashtirish va ularni ilk markazlashgan davlatchilik g'oyasi atrofida uyushtirish zaruriyati ham tug'ilgan edi. Zardusht yashagan davr Janubi – g'arbiy Markaziy Osiyoda ko'chmanchilikka asoslangan turmush tarzi qadr topayotgani, sug'oriladigan dehqonchilik hamda chorvachilik, hunarmandchilikning keng taraqqiy etayotgani, yangi shaharlar, qishloqlar bunyod bo'layotganligi, o'troqlik turmush tarzi har jihatdan afzal ko'rinishi bilan ham xarakterli edi. Shunday turmush tarzini barqaror qilish, odamlarga, xalqlarga g'oyat kulfat keltirayotgan hamda aksariyat bosqinchilik tusini olgan ko'chmanchilikka qarshi kurash hayotiy ehtiyojga aylangan edi. Bu ehtiyojni hammadan ko'p anglab yetgan donishmand Zardusht bo'ldi. Zardusht: "Bunday inqirozdan qutulish, xalqlar va qabilalarni birlashtirib, yagona davlatchilikka erishishning birdan- bir yo'li – bu yakkaxudolikka o'tishdan iborat deb bildi"<sup>1</sup>. Haqiqatan ham Zardusht butun ongli faoliyatini, hayotini ana shu muqaddas ishga bag'ishladi, shu muqaddas yo'ldagi kurashda halok bo'ldi. "Yagona xudoga ishonishgina jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tara oladi, deb hisoblardi Zardusht"<sup>2</sup>.

Zardushiyilik e'tiqodning asl kelib chiqishi, uning payg'ambari va «Avesto» kitobi haqida turlicha fikrlar mavjud. Kitobning asli nomi «Apastak» bo'lib, parfiyoncha «matn», yoki boshqa talqinlarga ko'ra «tayin etilgan», «muqarrar

<sup>1</sup> U. Jo'rayev, Y. Saidjonov. Dunyo dinlari tarixi. T. 2000. 65b.

<sup>2</sup> O'sha joyda, 66 b.

qilingan» «o'rnatilgan» ma'nolarini bildiradi. Bu kitob payg'ambar Zardusht («Avesto»da Zaratushtra) nomi bilan bog'lanadi. Qadim yunon tarixchisi Plutarx Zaradushtra Troya urushidan 6 ming yil ilgari tug'ilgan deb ta'kidlaydi. Agar Troya urushi milodiy eradan 1200 yil ilgari yuz bergenini nazarda tutsak, Zardusht yashagan davr bugungi kundan 9 ming yil oldin bo'lib chiqadi. Aristotel Zardusht vafotini Platon (mil. avv. 428-348 y.) vafotidan 6 ming yil ilgari bo'lgan deb ko'rsatadi. Germodor va Germini Zoroastr (yunoncha talaffuz) Troya urushidan 5 ming yil ilgari yashagan, deb hisoblaydilar.

Zardushtiylik dini va uning tarixini jiddiy o'rgangan olim Meri Boys bu dinning shakllanish davrini milodiy eradan ilgarigi XIV-XII asrlarga taalluqli deb topadi. Qator olimlar Zardusht payg'ambarlik e'lon qilgan davrni milodiy eradan oldingi VII asrga oid deydilar.

Zardushtiylikning haqiqiy vatani haqida «Avesto» kitobining o'z ma'lumotlariga suyanish, bizningcha, eng maqbul yo'ldir. «Avesto»ning bugungacha saqlanib qolgan qismlaridan biri «Vendidad» ning birinchi bobida Ahura Mazda yaratgan o'lkalar sanaladi:

1)Ariyana Vaeja, 2)Gava, 3)Mouru (Marg'av), 4)Baxdi, 5)Nisaya, 6)Xaroyiva, 7)Vekerta, 8)Urva, 9)Xnenta, 10)Xaraxvaiti, 11)Xetumant, 12)Raga, 13) Chaxra, 14)Varna, 15)Xapta Hindav, 16)Upa Aodshu RangxaY.

Olimlarning tadqiqotlari natijasida bular taqriban hozirgi quyidagi o'lkalarga to'g'ri kelishi ma'lum bo'ldi: 1)Xorazm yoki Amu va Sir oralig'i, 2)Sug'diyona, 3)Marg'iyona, 4)Baqtriya(Balx), 5)Nisa (Parfiya poytaxti- hozirgi Turkmanistonning janubi g'arbida), 6)Hirot, 7)Kobul, 8)Tus(hozirgi Eronning Xuroson viloyati), 9) Go'rgon (Astrobod), 10)Horut, 11)Gilmand(hozirgi Afg'oniston shimoli), 12)Rey (Tehron), 13)Chehra(Xurosonda), 14)Varna(Kaspiy dengizi janubi), 15)Hind daryosi bo'ylari, 16)Rangha daryosi kelib chiquvchi joy. Albatta, ba'zi joy nomlari hanuz bahsli. Ammo «Avesto» kitobida sanab o'tilgan yerlar butun Movarounnahr va Xuroson (jumladan, hozirgi Eron va Afg'onistonning shimoliy o'lkalari)ni qamrab olganligi ko'rinish turibdi. «Avesto»da Orol dengizi (Vorukasha yohud Vurukasha) va Amudaryo (Doytiya)

ham ta’rif etiladi. Demak, dastlabki davrlardanoq zardushtiylik yoki aniqrog‘i, «Mazdayasna» e’tiqodi, eroniy va turoniq xalqlar qadimdan aralashib yashagan yaxlit bir mintaqani qamrab olgan va shu hududda tarqalgandir. «Avesto» tili o’sha davrlardayoq juda qadimiy til hisoblanar va Eron imperiyasining rasmiy tili bo‘lmish qadim fors tilidan ham farq qilar edi.

Zardushtiylik Movarounnahrda ilgarigi diniy tasavvurlar va ma’jusiy diniy e’tiqodlarni avliyo Zardusht tomonidan isloh qilinishi oqibatida yuzaga kelgan dindir. Bu qadimiy din haqida bir- birini istisno etuvchi turli fikrlar xanuzgacha davom etib kelmoqda. Ko’p tadqiqotchilar Zardusht tarixiy shaxs bo’lib, u milodgacha 584 - 512 yillarda yashab ijod etgan ilohiyotchi, faylasuf, tabiatshunos va shoir ekanini e’tirof etadilar<sup>1</sup>. Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” va Tabariyning “Tarixi Tabariy” asarlarida Zardushtiyning tarjimai holi haqida qimmatli ma’lumotlar berilgan. Tabariyning ko’rsatishicha, u Ozarbayjonlik Safid Tuman degan kishining farzandidir. Zardusht Qadimiy Eron podshohlaridan Manuchehr avlodlariga ham mansub aslzodalardan”. Biroq so’nggi ma’lumotlarga qaraganda Zardusht asli turkiy millatga mansub bo’lib, hozirgi Turkmanistonga qarashli Marv viloyatining Eronga yaqinroq joyida tavallud topgan”<sup>2</sup>.

Islomshunos olim professor M. Usmonov ham bu fikrni ma’qullab “Zoroastrizm” zardushtiylik dini, ba’zan “forsizm” deb ham ataladigan bu din eramizdan ilgarigi ming yillikning birinchi yarmida Markaziy Osiyoda vujudga kelgan va bu yerdan Eronga va yaqin Sharqning ayrim rayonlariga tarqalgan”<sup>3</sup>. deb yozadi.

Arxeolog olim To’lqin Sa’dullaev: “Zardushtra afsonaviy emas, balki tarixiy shaxsdir. U qadim yunon manbalarida Zoroastr nomidan keltirilgan

Zardushtra nomi qadimgi eroncha “Zaratushtra” so’zidan kelib chiqqan bo’lib, “Zara” oltin, “ushtro”- “tuya” ma’nosini anglatadi. U “Oltintuyali”, “Oltin tuya egasi”, “tuyalar yetaklagan odam” deb tarjima qilinadi.

<sup>1</sup> Erkayev A. Ma’naviyatshunoslik. Monografiya. T.: Ma’naviyat. 2018 y. 383 b

<sup>2</sup> Ibrohim Xo’jamurodov. “Avesto” da ma’naviyat muammolari. Muloqot jurnali, 1997y,60-bet.

<sup>3</sup> M. Usmonov. “Donishmandlar odob- axloq haqida”. T.2002, 29-bet.

Zaratushtra Spitama avlodidan bo'lib, otasini – Pourushasp, onasini – Dugzova deb atashgan. Otasi kohinlar tabaqasiga mansub, u tug'ilgan mamlakat bizga noma'lum"<sup>1</sup> deydi.

Bu aytilganlar Zaratushtraning hayoti, tarixi, ayniqsa, uni tavallud sanasi va joyi haqida to'la ma'lumot berolmaydi. Bunga aniqlik kiritish uchun Zardushtiyarning muqaddas diniy kitobi hisoblangan va eng ko'hna qismlari Zaratushtra tomonidan bitilgan. "Avesto" kitobiga murojaat etish joiz. "Avesto" ning maxsus boblarida Zaratushtra tarixiy shaxs sifatida bayon etiladi. Zaratushtraning tug'ilgan yili haqida aniq ma'lumot yo'q. Miloddan avvalgi V asrda o'tgan Lidiyalik Ksanf Zaratushtra Kserksdan 600 yil avval yashagan, deb taxmin qiladi.

Sosoniylar davridagi Zardushtiyalar an'analariga e'tibor beradigan bo'lsak Zaratushtra hayoti miloddan avvalgi VII asrning oxiri – VI asrning boshlarida to'g'ri keladi. O'rta asr sharq allomasi Abu Rayxon Beruniy Zaratushtra Iskandar Zulqarnayndan 258 yil oldin tug'ilganligini ta'kidlaydi. Lekin ba'zi bir tadqiqotchilar ushbu sanani to'g'ri deyishsa, boshqalari noto'g'ri deb hisoblaydilar. Miloddan avvalgi 330 yilda Ahmoniyarning so'nggi vakili Doro vafot etadi. Hokimiyat Iskandar Zulqarnayn qo'liga o'tadi<sup>2</sup>.

Beruniy ma'lumotlariga asoslangan (330-288=588) V.Abaev va I. Dekonov xulosalariga ko'ra, Zaratushtra miloddan avvalgi 553-541 yillar atrofida 77 yoshida vafot etgan. Bu sana hisobidan Zaratushtra 630-553 yillar davomida yashagan bo'lsa kerak"<sup>3</sup>.

Zaratushtraning tug'ilgan joyi xususida xanuz ham bahslar davom etmoqda. Bir guruh olimlar hozirgi Ozarbayjon hududida tug'ilgan deb hisoblaydilar. Bunga ular "Avestoda" keltirilgan Ar'yonam Vayjo viloyatini (Eron tekisligini) asos qilib olganlar. Yana bir guruh olimlar Zaratushtra Baqtriyada (hozirgi O'zbekistonning Surxondaryo vohasi, Tojikistonning janubi, shimoliy Afg'oniston) tug'ilgan deb hisoblaydilar.

<sup>1</sup> T. Sa'dullayev. Zaratushtra haqiqatmi yoki aqidami. Muloqot jurnali. 2006y,8-bet.

<sup>2</sup> Erkayev A. Ma'naviyatshunoslik. Monografiya. T.: Ma'naviyat. 2018 y. 384 b

<sup>3</sup> O'sha jayda, 8-bet.

Boshqa bir guruh olimlar Zaratushtraning vatani Xorazm ekanligini ta'kidlaydilar. Payg'ambar Zaratushtraning tug'ilgan joyi vatani haqida "Avesto" da biron ma'lumot yo'q. "Avesto"da keltirilgan jug'rofiy hududlarni o'rganish asosida ko'pchilik tadqiqotchilar Zaratushtra Markaziy Osiyo viloyatlaridan birida, hech bo'limganda bu hududga qo'shni bo'lgan Shimoliy – g'arbiy Afg'oniston yoki Shimoliy -sharqiy Eron hududida tug'ilgan, deydilar. Umuman Zaratushtra vatani Markaziy Osiyo deb hisoblovchi olimlar ko'pchilikni tashkil etadi".

Aytish kerakki, dunyoda yangi din va e'tiqodga asos solgan ulug' payg'ambarlar ichida Zaratushtraning ham munosib o'rni bor. U er yuzi dirlari ichida eng qadimiylaridan hisoblanmish bundan yigirma olti asr muqaddam ko'pgina Sharq mamlakatlariga yoyilgan zardushtiylik (zoroastrizm) ning asoschisidir.

Darhaqiqat, inson ma'naviyatining shakllanishida, taraqqiyotida dinlar uzoq asr mobaynida asosiy o'rinni tutib keldi. Din o'zligini, o'z hayotining mohiyatini izlayotgan insonning ong samarasi, murakkab turmushi so'qmoqlarida o'zini qiynagan, echolmagan savolu jumboqlarining javobidir.

Inson sekin – asta, bir kunmas bir kun: "bu hayot, uni o'rabi turgan butun borliq qat'iy va mutloq qonun – qoidalar asosida yaralgan, uni anglab etishga men qodir emasman", degan fikrga keladi. Va shunga ko'ra u o'zini tushunmagan, idrok qilmagan turfa hodisalardan ramziy ma'no izlay boshlaydi. Inson ongida xudo o'tmishda ham, hozirda ham mana shunday muqaddas ramz bo'lib shakllanib keldi. Lekin inson idrokida xudoning shakllanishida albatta, biron- bir e'tiqod din yoki shu denga asos solgan payg'ambarlarning ta'limoti vositachilik qiladi.

Bashariyat, Budda, Muso, Iso, Muhammad alayhissalam kabi payg'ambarlarning nom- nasabini yaxshi biladi. Shunday payg'ambarlardan eng sirlisi – Zardushtdir. Sababi, u asos solgan din – eng qadimiysidir. Zardushtiylik o'tmishda dunyoning eng yirik dinlaridan sanalgan bo'lsa ham, hozirda mazkur din ahli juda oz qolgan bo'lib, ularning guruhlari Hindiston va Eronda yashaydilar va o'zlarini forslar deb ataydilar. To'g'ri, Zardushtiy forslari musulmonlar, nasroniylar, butparastlar singari ko'p sonli aholini tashkil qilmaydilar, lekin ular o'z dinlariga

sodiqdirlar, er yuzida keng yoyilgan boshqa din payg’ambari qanday holda sanolarga noil bo’lsalar, ular ham o’z nabiysini shunday ulug’lab e’zozlaydilar.

Payg’ambarning nasl-nasabi, hayoti bilan tanishar ekanmiz ular uchun umumiy bo’lgan bir jihat diqqatimizni o’ziga tortadi: ulug’ dinlarga asos solgan barcha payg’ambarlar Sharqda tug’ilib o’sganlar.

Budda Hindistonda tavallud topdi. Muso payg’ambar Misrda, Iso payg’ambar Quddusi Sharif yaqinidagi Vafleemda dunyoga keldilar. Muhammad alayhissalom Sharqdagi eng mashhur shaharlardan biri Makkada tug’ildi. Zardushtning hayoti ham bu muqaddas qonuniyatdan istisno emas, u ham Sharqda – hozirgi O’zbekiston hududida dunyoga keldi. Qadimiy Xorazm – Zardusht tug’ilgan diyordir.

Qadimiy manbalarning guvohlik berishiga ko’ra, Xorazmliklar – ko’hma Vasiyat (“Vetxiy zovet”) da, Mavjudot (“Bitiya”) kitobining X bobida tilga olingan ariylarning bir qismi, Injildagi Nuhning o’g’li bo’lmish Iofetning avlodidir. Bu shershoh shajaraning ildizlari bepoyon O’rta Osiyoning qir-adirlarida tarqalib ketgan.

Qadim- qadim zamonalarda bu qabila (ular o’zlarini “ oriflarga, ya’ni oljanob, ulug’, hurmatga loyiq odamlar deb atashardi) o’rtasida ilk bor bo’linish, ajralish boshlandi. Qabilaning bir qismi Osiyo bo’ylab tarqaldi.

Boshqa bir ulkan guruhi vaqt o’tishi sayin, Ural tizmalari, Kaspiy sohillariga yoyilib, dasht bo’ylab Yevropa tomon siljiy bordi. Osiyoda qolgan guruhlar yanada yiriklasha boshladi. Bu guruh vakillari hind yarim oroliga yo’nalib o’sha erda o’troqlashib qoldi. Shu sabablarga ko’ra oriy irqining Osiyo va Ovrupa tarmoqlari yagona bir nom hind- ovrupa irqi nomi bilan ataladi.

Oriylarning Osiyodagi guruhi ham o’z navbatida ikki yo’nalishga ajralib ketgan: bir guruhi yuqorida aytganimizdek, hind yarim orolida, ikkinchi bir guruhi esa o’z vatanidan Janubiy g’arb tomon siljib, bir necha tog’lardan oshib Eron va Xorazm hududida joylashib qoldi.

O’rta Osiyo hududida joylashgan qabilalar ichida, ayniqsa, xorazmiylar tez va muvaffaqiyatli taraqqiy qila boshladi. Huddi shu shon- shuxratni eshitgan

assuriyalik bosqinchilar- Ninno, Sezotrias va Malika Samiramidalar Xorazm va Baqtriya tuprog’iga qo’shin tortib keldilar.

Ularning bosqinchilik yurishlari eramizdan avvalgi X- IX asrlarda- tarix sahnasida Zardusht nomi paydo bo’la boshlagan paytga to’g’ri keladi. Bu hodisalarning qariyb bir vaqt doirasida ro’y berayotgani tasodify emas. Zero tarixda shunday qonuniyat bor: insoniyat taraqqiyotining hal qiluvchi, burilish pallalarida tarix shunday kuchli shaxslarni yaratadiki, bunday odamlar jamiyat munosabatlaridan barcha yangi ilg’or g’oyalarni o’zida mujassamlashtirib ham fanda targ’ib qila boshladilar.

Zardusht o’z ta’limotida oddiy mehnatkash xalq manfaatini himoya etadi, va’z- nasihatlarida ommaviy qonli qurbanliklarni qoralaydi:

Insonni hayotdan mahrum qilishga hech kimning haqi yo’q, deb ta’lim beradi Zardusht. Shuningdek, u odam jasadi bilan tuproqzaminni iflos qilmaslikka, ya’ni xudolarga xush ko’rimoq uchun, tirik odamni tuproqqa qo’ymaslikka, umuman, o’liklarni erga qo’ymaslikka chaqiradi”<sup>1</sup>.

Zardusht dunyoda ikki ibtido ezgulik va yovuzlik mavjudligi, ular o’rtasida ketuvchi muttasil kurash g’oyasini keng targ’ib qiladi. Uning fikriga ko’ra, zolim hukmdorlar qonho’r Moloxga xizmat qiluvchi kohinlar – yomonlik vakillaridir. Zardusht ularga qarshi jihod e’lon qildi. Zardusht oliy ruhiyat sohasida yaxshilik va nur egasi – Xudo Xurmuzdni tilga oladi, unga qarama – qarshi kuch sifatida esa yovuz ruh zulmat va yomonlik xudosi Axrimanni keltiradi. Shu bilan birga Zardusht o’z ta’limotiga ishonuvchilar orasida qiyomat – qoyim haqida, narigi dunyo haqida, o’liklar tiriluvchi kun haqida, odamlar hech qachon qochib qutulmajak so’nggi savol – javob kuni haqida va’zlar o’qirdi. Hammani Ezgulik va Yovuzlik o’rtasida ketayotgan kurashda faol qatnashish, olivjanob ezgu ishlar bilan ezgulikka ko’mak berishga chaqiradi.

Bu dunyoda yashovchi har bir inson faqat ezgu ishlar qilmog’i joiz, qilgan manfur sa'y- harakatlari, badniyatlar uchun u xudo Xurmuzd oldida so’zsiz javob

---

<sup>1</sup> Naim Norqobilov. Zardushtiylik dini haqida ba’zi mulohazalar. Jamiyat va boshqaruv jurnali.2008, №3,43-bet.

berajak. Zardusht odamlar orasida yoya boshlagan bu ta'limot o'sha davr uchun misli ko'rilmagan yangilik edi. Zardusht, bu haqiqatni Nur va ezgulik xudosi Xurmuzd yuborganini xabar berib, o'zini esa Xurmuzdning bashariyatini qutqarish uchun erga jo'natilgan o'g'li deb e'lon qiladi.

Zardusht ta'limotida **olov, er, tuproq, suv va havo** muqaddas hisoblanadi. Ularni iflos qilish katta gunoh deb qaralgan.

Zardushtiylilik dinida imon uch tayanchga asoslanadi:

**1)** Fikrlar sofligi, **2)** so'zning sobitligi, **3)** amallarning insoniyligi: “Bergan so'zning uddasidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sotiq va shartnomalarga qat'iy amal qilish, qarzni o'z vaqtida uzish, aldamchilik va xiyonatdan holi bo'lismay imonlik alomatidir”<sup>1</sup> – deyiladi.

Zardusht ta'limotiga ko'ra, odam o'lgach, uning joni 3 kun tanasida bo'ladi, to'rtinchi kunda go'zal qiz qiyofasidagi farishta boshchiligidan narigi dunyoga “Chinvot” (qizilko'prik) ko'prigidan o'tib jannatga ketadi. Qiyomatda ular o'z tanalariga qaytishni kutadilar. Gunohkorlar esa chinvotdan o'tolmay jahannamga g'arq bo'ladilar. Yaxshilar yana o'z tanalarida yashishni davom ettiradilar. Odamlar dunyoga har 3 ming yilda qaytib turadi, deyiladi”<sup>1</sup>.

Zardushtgacha ham Oxuda, Mitra, Mazda kabi xudolar bo'lgan. Zardusht o'sha ko'p xudoliklardan voz kechib, Ahura Mazdani tanladi, u orqali o'z ta'limotini ifodaladi. Zardusht talqinida Ahura Mazda “Oliy ibtido” bo'lib, uning na xotini, na farzandlari bor. U hamma mavjudotni yaratuvchi va boshqaruvchi – Oliy ruh sifatida berilgan. Zardushtizm yakka xudolik orqali o'rta hol dehqon, o'rta hol chorvador, hunarmand va ularning kamtarona hayot tarzini ilohiyashtirdi.

Umuman xulosa qilib aytish mumkinki, VII- VIII asrlarda arablar Markaziy Osiyo va Eronni bosib olib, bu hududlarda Zaratushtra ta'limotini yo'q qilgach Islom dinini yoyishdi.

Zardushtiyarning katta qismi - 21 mingga yaqin kishi XVIII asrda Hindistonga ko'chib o'tdi. hozirgi vaqtda Zardushtiylilik diniga e'tiqod qiluvchi

---

<sup>1</sup> S.Otamurodov,S.Xusanov, J.Ramatov. Ma`naviyat asoslari. T.: 2002.

xalqlar Hindiston va Erondagina mavjud. Xullas, Zaratushtra o'z zamonasida va undan keyin ham tarixiy shaxs bo'lib qoldi. U yaratgan ta'limot ma'lum muddat deyarli butun Sharqqa, Markaziy Osiyoga yoyilib ko'pgina davlatning diniga aylandi.

## **1.2. “Avesto”- ajdodlarimizning qadimgi ijtimoiy – iqtisodiy va ma'naviy hayoti haqida.**

Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlarining ma'naviy madaniyati haqidagi bilimlarning bebaho manbasi «Avesto» xisoblangan. «Avesto» so'zining mazmuni umumiylizoxga ega emas., ko'pincha «Asosiy matn» sifatida tarjima qilinadi. «Avesto» dunyodagi eng qadimgi dinlardan bo'lgan zardo'shiylik tarafdlari uchun muqaddas kalima xisoblanib, paygambar Zardo'sht to'planganlarga undan va'z o'qigan. Uning hayoti davri mil. av. IX-VI asrlar atrofida deyiladi. «Avesto» va uning boshqa matnlarining to'planishi ko'p asrlar davomida amalga oshirilgan. «Avesto»ning eng qadimgi matnlari mil. av. II- minginchi yillarga taaluqli, «Avesto»ning millodiy VII asrga tegishli bo'lgan to'plami turli mazmundagi 21 kitobdan iborat bo'lib, unda o'sha davrning barcha bilimlari jamlangan. Zardo'shiylik an'analariga ko'ra bu yodgorlik Ezgulik va Yoruglik xudosi Axuramazdaning Zaraturjraga vaxiysi xisoblanadi. Biroq, unda qadimgi mifologik tasavvurlar, miflarning keng tarqalishi, qaxramonlik epik rivoyatlaridan parchalar xam tasvirlanadi. Shuningdek diniy yo'l-yo'riq «paygambar davridan» keyin zardo'shiylikning rivojlangan «e'tiqod ramzi» yuzaga keldi. xozirgacha «Avesto»ning ayrim qismilari, 4 kitobi saqlanib qolgan:

1. Videvdat- «Devlarga qarshi qonunlar», bu kitobda asosan zardo'sht va Axuramazda o'rtasida suxbat, yo'l-yo'riq va ko'rsatmalar mazmunida bo'lib, zulmat va yovuzlik xudosi Axrimani boshqaruvchi yomonlik kuchlarini qaytarish xaqida.
2. Visparat- «hamma xukmronlar», bu kitobda ibodat namozlari to'plangan.

3. Ясна- «Ибодат», «Маросим» китоби xудоларга sig’иниш ва муројаатдан iborat. Яснадаги «Тот»лар nomli 17 bob zardo’shtning muqaddas qo’shiqlaridir.

4. Яшт- «Qadrlash», «Hamdu sano» kitobi-xudolarni sharaflovchi qadimgi gimnlar va ezgulik xudolariga yovuzlikka qarshi kurash yordam beruvchi kuchlar xaқida. Bundan tashqari, «Avesto» majmuiga «Kichik Avesto» xam mansub, u avesto tilida yozilgan bo’lib, ibodat kalimalari joylashgan.

I.Karimov aytganidek, “Avesto”ning tub ma’no-mohiyatini belgilab beradigan “ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal” degan tamoyil negizida hozirgi zamon uchun ham behad ibratli bo’lgan saboqlar borligini ko‘rish mumkin. Ana shunday fikrlar, ya’ni ezgu niyat, so‘z va ish birligini jamiyat hayotining ustivor g‘oyasi sifatida talqin etish bizning bugungi ma’naviy ideallarimiz bilan naqadar uzviy bog‘liq, nechog‘liq mutahkam hayotiy asosga ega ekani ayniqsa e’tiborlidir.<sup>1</sup> Shu bilan birga mazkur tarixiy yodgorlikda g‘arazgo‘ylik, hasad, manmanlik, fitna-fasod qattiq qoralanadi. Va’daga vafo qilish, ahdga sadoqat, samimiyat, xolislik, o‘zaro hurmat, izzat-ikrom kabi ma’naviy-axloqiy fazilatlar ulug‘lanadi. “Avesto” dunyoni inson uchun sinov maydoni deb tushuntiradi.

Ko’pchilik olimlar Zardo’sht yuksak axloqiy idealdagi va ishontiruvchi fikrlari bilan birinchi xaq paygambar ekanligini takidlaydilar. Zardo’sht ta’limotiga muvofiq barcha quruqlikning o’zgarmas ibtidosi Arta bo’lib, «Avesto»da xaqiqat, olov rux deyiladi. Axuramazda tartibni saqlovchi osmon xudosi yoruglik va ezgulik xisoblangan (oxura-xo’shayish, ega; mazda-idrokli, bilimdon). Axuramazdaning o’gli -Atar (олов), uning vatani bulutlardek qurigan suvlar, uning makoni-xududsiz yogdu. Oxuramazda 6 ta ruxni- yordamchilarni yaratdi (amesha spenta): ezgu aql, yaxshi tartib, layoqatli qudrat, oljanob mo’minklik, soglomlik va boqiylik. Unga Axrimaning zulmat qo’shini-devlar, urushlar timsoli, ochlik, kassallik, adovat va boshqa yovuz kuchlar qarama-qarshi turadi. Olam va barcha insoniyat hayotining asosida ezgulik va yovuzlik o’rtasidagi azaliy kurash yotadi.

---

<sup>1</sup> Qarang: Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008, 32- bet

Zardo'sht ta'limotining ulug'ligi shundaki, u har bir kishiga tanlash imkonini beradi. Har kim xam Yovuzlikni yo'q etish va Ezgulikning xukmron bo'lishida ishtirok etishi mumkin, bu ishda barcha bir xilda tengdir. Shu tariqa yerda ilgari bo'limgan jannat -oltin asr tiklanadi. Unda sovuq xam jazirama xam, qarilik xam, o'lim xam bo'lmaydi. Yovuzlik bilan kurashda xar bir kishining asosiy qurolli mehnat bo'lgan. Zardo'shiylik axloqi kishidan kamtarin va xalol mexnatkash dehqonning barcha majburiyatlarini bajarishni talab qilgan (Kim g'alla eksa, u haqiqat tarqatadi. Videvdat kitobining «Dehqonchilik fazilati haqida» bobidan). Fikr, so'z va ishda taqvodorlik, ishchanlik, halollik, xolislik yuksak axloqning asosiy talabalari sifatida ko'tariladi. «Ясна» kitobida zardo'shiylikning e'tiqod ramzi haqida deyiladiki: «Qasam ezgu fikrni, ezgu so'zni, ezgu faoliyat majburiyatlarini bajarishni talab qiladi».

Zardo'shiylikda birinchi bo'lib esxatalogik ta'limot yaratilgan, bunga muvofiq jahon tarixi 12 ming yilni tashkil qiladi. Bu muddat tugashi bilan ezgulik va yovuzlik kuchlarining xal qiluvchi yovuzlik jangi boshlanadi. Butun olamni erigan metal oqimi yo'q qiladi, biroq xaloskor Saoshyant xalok bo'lган dunyoni va barcha marxumlarni tiriltiradi, barcha gunoxkorlarni do'zaxdan chiqarib Oxurumazdaning ideal xukmronligida abadiy hayot kechiradi. Shu tariqa zardo'shiylikda birinchi bo'lib oxiratdagi jazo, marxumlearning tirilishi so'roq kuni g'oyasi shakllanadi. Bu g'oyalar Doro I ning Bexustun yozuvida va Kserksning Persepoldagi yozuvida xam qayd qilinadi. Zardo'shiylik Markaziy va Old Osiyo xududlarida ming yillar davomida hukmron din bo'lib keldi va shubxasiz, bu din xristianlik va islom kabi jahon dinlarining shakllanishida katta o'rinn tutdi. Ilmiytarixiy, amaliy-didaktik qimmatga ega bo'lgan buyuk merosimiz «Avesto»ning butun ma'no moxiyati Inson taqdiri, uning Istiqboliga qaratilgan. Jumladan, Tangriga iltijo va murojaatlarda shunday deyiladi: «Axuramazda yaratgan yaxshilik g'oyasiga, sog'lom, aql-xushi tetik farzandlarga, jasur, dono, turli tillar biladigan o'g'il-qizlarga, uzoqni ko'ra biladigan, yurtni balo-qazolardan himoya

eta oladigan o'g'lonlar, yaxshi kelajak, porloq hayotni ravshan ko'z bilan ko'ra oladigan pokniyat avlodlarga olqishlar bo'l sin<sup>1</sup>.

Yashtning uchunchi bobida bunday xabar qilinadi: "Xudo Mitrani biz ulug'laymiz. Unga hech kim yolg'on gapirolmaydi: uyda oila boshlig'i, urug'oqsoqoli, qabila yo'lboshchisi va mamlakat sardori, yolg'onchi bo'lsa, g'azablangan Mitra butunlay oilani, urug'ni, qabilani, mamlakatni va ularni boshliqlarini ham tamoman yo'q qiladi"<sup>2</sup>.

Oqsoqollar kengashi – "varzanopati", "xanjamona", xalq yig'ilishi (majlisi) – "vyaxa" deb atalgan. "Avesto" shahar hayoti va tuzumi haqida ma'lumotlar bermaydi. Manbada "shahar" so'zi yoki "shahar jamoasi" tushunchasi yo'q. "Avesto" qadimgi jamiyatning to'rt toifasini ajratib beradi- kohinlar, jangchi askarlar, chorvadorlar va hunarmandlar (yasna, 19- bet). "Avesto" da tilga olingan "baland uylar", "ustunlar" maxsus binokorlar bo'lganligidan dalolat beradi. Manbaning turli ma'lumotlariga ko'ra, qadimgi qishloqlarda zargarlik, kulolchilik, to'quvchilik va temirchilik rivojlangan.

"Avesto"da chorvachilik hayotiga oid ma'lumotlar juda ko'p saqlanib qolgan: "Ahura Mazdagacha murojaat qilib, payg'ambar ayturki: "Sen o'sha, kim bizga hayot manbai bo'lgan chorvani dunyoga keltirib, yaratgansan"<sup>3</sup>.

"Ahura Mazda yaratgan hamma narsaning ichida birinchi o'rinda chorva turadi. Biz chorvaga "tinch o'tov va yemish ta'minlashga chaqiramiz".

"Chorvaga yaxshi ega kerak, ushbu erdan chorva egalariga men erkin yurishni va erkin hayotni ta'min qilaman". (Yasna. 24 bob).

Yasht va Yasna boblarida dehqonchilik haqida ma'lumotlar uchramaydi. Videvdat kitobida dehqonchilik savob ish deb hisoblangan:

Dunyoda biror bir din, biror bir ta'limot, yo biror bir g'oya, yo biror bir aqlli zot zaminni va undan o'nguvchi bug'doy, ya'ni nonni "Avesto" chalik qadrlagan emas.

<sup>1</sup> Hamidov X. Asl naslni deb... «Xalq so'zi» gazetasi, 2000 y. 21 iyun

<sup>2</sup> A. Sa'dullayev. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda T.: 1999, 23-bet.

<sup>3</sup> T.Mahmudov. "Avesto" haqida. T.: "Sharq". 2013, 22-bet.

“Ey olamni yaratgan zot!”

Ey, haqiqat!

Zaminni hammadan ko’ra baxtliroq bo’lgan dunyodagi birinchi joy qayer?

Ahura - mazda javob berdi:

Ey, Sipiytmon Zardusht!

Bunday joy qo’lda pokiza o’tin, barsam, xovak va yangi sog’ilgan sut tutgan, o’z amal e’tiqodiga dilda ishonchi sobit, o’ktam ovoz, keng yaylovlar ishqil bilan masrur va bu yaylovlarni qo’shiqqa solgan bir Ashavon oyoq bosgan Zamindir”.

Ushbu tekstdagi Barsam – Avestoda “barksman”, “silamoq”, “serpimoq” ma’nolarini ifoda etadi. Daraxtning yangi kesilgan shoxi. Zardushtiyalar hamdu – sano lahzalarida bu shohlarni qo’lga tutganlar. Avestoning biror bir o’rnida ushbu qay bir daraxtdan kesib olinishi aytilmagan. Biroq eng oxirgi mazdaparastlar adabiyotida bu shohlar anor daraxtidan kesib olinadi, deyilgan. Ularni “barsamchin” nomli pichoqda kesib olingan.

Yuvinish marosimi bajo keltirilayotgan mahalda barsamdan foydalanilgan. Boshqa rasm- rusumlar ado etilayotgan barsamlar maxsus “barsamdon” yoxud “mohruy” ga qo’yilgan.

Xavana – hozirgi zamon fors tilidagi “xavon” (uchir) ning etimologiyasi ushbu avestoni “xavona” ga borib taqaladi. Avesto e’tiqodiga ko’ra bir kecha-kunduz besh qismdan iborat. Uning dastlabki qismini asraguvchi ilohning nomi xavondir. Bundan tashqari mazdaparastlar uchun muqaddas sanalgan xvana o’simligi ezib sharbati olinadigan maxsus idishning nomi ham xavandir. Xvana o’simligi yangilayotgan chog’da yangragan ovoz otashparastlarni ibodatgohga chorlaydi.

Ahura Mazda odamlarni bir-birlari bilan murosa qilib yashashni odat qilishlari, g‘arazgo‘ylik, hasadgo‘ylik, kalondimog‘lik, shuhratparastlik, qonunsiz ishlardan o‘zlarini tiyib yurish uchun intilishga chaqiradi. Bergan so‘zning ustidan chiqish, unga sodiq qolish, savdo-sodiqa shartnomalarga amal qilish, qarzni vaqtida to‘lash, aldamchilik va hiyonatdan holi bo‘lish –iymonlilik alomatlari

ekanligi aytildi. Iymonli odam o‘g‘rilik va talonchilikdan, begonalarning molu dunyosiga ko‘z olaytirishdan, o‘z-o‘ziga hiyonat qilish, ya’ni o‘z iymoniga xilof ishlardan o‘zini saqlay biladigan komil insondir. Tanalaringizga nisbatan qalbingiz haqida ko‘proq qayg‘uring, ya’ni avval ma’naviy dunyoingiz musaffo bo‘lsa, moddiy turmushingiz ham mukammal bo‘lib boraveradi, deyiladi “Avesto”da. Iymonli odam, albatta ezgulik tarafida turadi; o‘g‘rilik va talonchilikdan, begonalar mol-mulkini talon-taroj qilish, ularga ko‘z olaytirish, o‘ziga-o‘zi, vijdoniga hiyonat qilish kabilardan o‘zini saqlaydi; ham tanini, ham qalbi ya’ni ruhini pok tutadi, deb ta’kidlanadi. “Avesto” odamlarni har qanday yomon niyat va so‘zlardan saqlanish, yomon amallardan voz kechish, nojo‘ya ishlardan yuz o‘girishga da’vat etadigan ma’naviy-axloqiy qoidalar, diniy o‘gitlar, falsafiy g‘oyalar nihoyatda ko‘pligi bilan ham alohida ahamiyatlidir.

“Avesto”da mehnat nihoyatda ulug‘lanadi. Mehnatni yaxshilik, moddiy noz-ne’matlar manbai deb biladi. Inson sahovatli bo‘lishi uchun avvalo mehnat qilishi, o‘z qo‘li bilan noz-ne’matlar yaratishi zarurligi uqtiriladi. “Avesto”da: “Don ekkan kishi taqvodorlik urug‘ini ekadi, u Mazdaga ixlosmandlik e’tiqodini olg‘a suradi, imonni oziqlantirib turadi...” deyiladi. Bunga amal qilish o‘n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbanlik qilishga teng. Ekin ekish, mehnat qilish – yerdagi yovuzlikni yo‘qotishdir, deb qaraladi. “G‘alla yerdan unib chiqqanda, deyiladi – “Avesto”da, devlar larzaga keladi, g‘alla o‘rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g‘alla yanchib-un qilinayotganda qocha boshlaydi, xamir qilinayotganda esa devlar mahv bo‘ladi...”deb mehnat ulug‘lanadi. Mehnatni yoqtirmaydigan dangasa, tanbal kishilar qattiq qoralanadi. Kimki yerga vaqtida ham o‘ng qo‘li, ham chap qo‘li bilan ishlov bermagan, mehnat qilmagan bo‘lsa, unday kimsalarga Zamin: “O, sen odam, menga topinmaydigan, mehnat qilmaydigan odam! Sen haqiqatan ham tilanchilar qatorida, yot eshiklarga ta’zim qilib, abadul-abad bosh egib turajaksan! Haqiqatan ham sening yoningdan har-xil

ziroatlarni olib o'tadilar, bu noz-ne'matlarning barchasi mehnat qilayotgan: to'q va farovon yashayotgan xonadonga nasib qiladi. Abadul abad shunday bo'lajak"<sup>1</sup>, - deb javob beradi.

Zardusht xudo Axuramazdadan yer yuzidagi eng yaxshi joy qayerda, deb so'raganida u, inson mehnat qilib qayerdaki o'ziga uy tiklab, olovga va oilasiga, xotini va farzandlariga, podalariga o'rin ajratib bersa, yem-xashagi ko'p bo'lib, chorvasi va itlari to'q yashasa, uyida noz-ne'matlar muhayyo bo'lib, xotini va farzandlari farovon yashasa, uyida e'tiqodi sobit, olovi alangali, boshqa narsalari ham mo'l-ko'l bo'lsa, o'sha manzil, o'sha go'sha ulug'dir, muhtaramdir, deb javob beradi.

Bundan tashqari "Avesto" da zaminni eng baxtli qilgan narsalar nimadan iborat ekanligi ham batafsил bayon qilingan.

"Ey olamni yaratgan zot!"

Ey, haqiqat!

Zaminni hammadan ko'ra baxtliroq bo'lgan dunyodagi ikkinchi joy qayer?

Ahura - mazda javob beradi:

- Bunday joy bir Ashavon uy tiklagan makondir. O'sha uyda mubad ro'zg'or tebratadi. Sigirlar galasi va uy bekasi farzandlar va suruvlar yashaydi. Bu uyda "Sigirlar galasi yaxshi parvarish qilinadi. Ashavonlik afzun bo'ladi. Tevalar xuroni farovon, yaxshi ishlarning rizqi serob. Uy bekasi baxtiyor, farzandlar shodmon – hamisha olov gurillab yonib turadi. Tiriklikni go'zal har bir qabilasi yaxshilikka qovushadi.

Bunday joy dunyodagi ikkinchi baxtiyor zamindir.

"Ey olamni yaratgan zot!"

Ey, haqiqat!

Zaminni hammadan ko'ra baxtiyorroq bo'lgan dunyodagi uchinchi joy qayer?

Ahura - mazda javob berdi:

Ey, Sipiytmon Zardusht!

---

<sup>1</sup> Jondor To'lanov. Qadriyatlar falsafasi. Toshkent, "O'zbekiston", 1998, 101-bet.

Bunday joy bir Ashavon hammadan ko'proq bug'doy, yog' va mevali daraxtlar ekkan, odamlar quruq yerkarda suv chiqargan, suvli erlarni shudgor qilgan zamindir.<sup>1</sup>

“Ey olamni yaratgan zot!”

Ey, haqiqat!

Zaminni hammadan ko'ra baxtiyor qilgan shaxs kim?

Ahura - mazda javob beradi:

Axriman bino qilgan ishlarni eng ko'p vayron qilgan Zot.

Bulardan tashqari, zamin haqida “Avesto”da fikr yuritilar ekan, shu zaminni e'zozlaganlar haqida fikr bayon qilinadi, jumladan, “Avesto” da keltirilgan zaminni ko'proq baxtiyor qilganlar haqida fikr yuritadi.

Avestoda uzoq zamin ekilmagan, omoch tegmagan zamin baxtsizdir. Va zamin omochni orzu qiladi. Bunday zamin balohat pallasiga kirgan sohibjamol qizdir. Bu qiz farzand ko'rish va yaxshi yostiqdoshga intikdir deydi.

Kimda- kim zaminni chap va o'ng qo'l bilan shudgor qilsa, zamin unga shunday deydi.

- Ey, mard, ey, meni chap va o'ng qo'li, o'ng va chap qo'li bilan shudgor qilgan zot!

Odamlar hamisha bu erga keladilar va non so'raydilar. Men bu erda hosilga kiraman, sen uchun har turli xo'rak va mo'l- ko'l bug'doy yetishtiraman.

Kimda- kim bug'doy eksa, u Otani (haqiqat) ekadi. U mazda dinini yana va yana ko'kartiradi. U mazda dinini yuzlab hamdu- sano, narzu- niyoz va o'n minglab qurbanliklar bilan quvvatlashtirganini qudratli qiladi. Qachonki egatlarda urug' yetilsa, devlar o'rinalidan turadilar. Qachonki bug'doy gurkirab ko'karsa, devlar dahshatdan titray boshlaydilar.

Qachonki bug'doy un bo'lsa, devlar nola chevadilar. Qachonki bug'doy xirmonga oyulsa, devlar nobud bo'ladilar. Qay bir xonadonda bug'doy bosh chiqarsa, devlar u xonadondan uzoqlashadi.

---

<sup>1</sup> T.Mahmudov. “Avesto” haqida. T.: “Sharq”. 2000,15-bet.

Qay bir xonadonda bug'doy ombori bo'lsa, go'yo qizdirilgan temir devlar bo'ynini chirmab tashlaydi”<sup>1</sup>. Xulosa qilib aytish mumkinki “Avesto” da zamin va uning insoniyat uchun juda muhim ahamiyatiga ega ekanligi yuqorida keltirilgan dalillarimiz asosida asosli bayon qilingan.

Bundan tashqari, “Avesto” da diniy falsafiy va boshqa turli ma'lumotlar ham bayon qilingan.

Zardushtiyarning diniy falsafasi qarama-qarshi kuchlarning kurashiga asoslangan. Bu kurash xudolar o'rtasida boshlanib (Yaxshilik xudosi Ahura Mazda bilan yomonlik xudosi Axiro manyo- Axriman o'rtasida), tabiatda va insoniyat hayotida ham davom etdi.

Ahura Mazda yaxshilik, yomonlik, baxt keltirsa, hayot va haqiqat beruvchi xudo bo'lib hisoblangan. Zaratushtra bunday xabar qiladi: “Biz Ahura Mardzani ulug'laymiz, u chorvani, suvni va o'simliklarni, yorug'likni va yerni yaratgan”<sup>2</sup>.

Ahura Mazda hayotini va dastlabki odamni yaratuvchi xudo deb faraz qilingan. Aixro-manyo yomonlik, kasallik, o'lim va zulmat keltiruvchi xudo bo'lib hisoblangan.

Aholi joylashgan dunyoni Zardushtiyalar 7 ta tabiiy qismlarga bo'lganlar. Bu dunyoning tarixi 12 ming yil davomida rivojlanadi deb faraz qilingan. Zardushtiyalar fikriga ko'ra, dunyo rivojlangan to'rt bosqichga bo'linib, har bir davr 3 ming yildan iborat bo'lган.

Birinchi bosqich – bu ko'rmas ma'naviy dunyo; ikkinchi hayot va dastlabki yagona Govmard odami paydo bo'lishi davri: uchinchisi- “oltin davr”, oriylar afsonaviy qahramonlarni ish-harakatlari davri; to'rtinchi bosqich payg'ambar Zaratushtra vafotidan so'ng boshlangan.

Dunyo tarixini ikkinchi davri Aixro Manyoning yomonlik faoliyati boshlangan. U dastlabki yagona Gavmard odamga o'lim keltirgan. Ammo birinchi odamdan erkak va ayol paydo bo'lган. Ular insoniyat urug'ini vujudga keltirganlar.

---

<sup>1</sup> T.Mahmudov. “Avesto” haqida. T.: “Sharq”. 2000, 37-bet.

<sup>2</sup> G' Soatov. Zardushtiylik madaniyati va ma'naviyati. Qarshi. “Nasaf” nashriyoti. 2004, 20-bet.

“Avesto” ma'lumotlariga ko'ra, ariylar va Gavmard farzandlaridan tashkil topgan.

Uchinchi bosqichda – Yima (Jamshid) podsholik qilgan bu “oltin” davrga dunyoda baxtli hayotning rivojlanishi yuqori darajaga yetgan. Dunyo aholisi bir necha marotaba ko'payganligi va keng yoyilganligi sababli inson, qushlar va hayvonlar yashashi uchun sayhon yerlar qolmagan. Ahura Mazda maslahatiga binoan, Yima har 300, 600 va 900 yil davomida yer chegaralarini va insonlar joylashuvi hududini kengaytirib borgan. Er yuzida qish, sovuqlik va toshqin suvlar xavfi bo'lishiga binoan, Yima “vara”- to'rt burchakli qalai- makonga asos solgan. Bu makonda turli o'simliklarning o'sishi, har bir kichik va katta shakli mol, parranda, it va odamlarning yashashi uchun olov hamda oziq-ovqat saqlash imkoniyatlari yaratilgan. To'rtinchi bosqichning so'nggi yillarida “oxirgi zamon” boshlanishi lozim. Zardushtiylar fikriga ko'ra, xuddi shu zamonda, dunyo va insoniyat taqdirini hal qiluvchi, dunyo hayotini qutqaruvchi Saotyant nomli shaxs paydo bo'ladi. U yerni “eritilgan temir oqimida” tozalab berishi lozim bo'ladi. Yovuz kuchlar tomonida bo'lib, haqiqatga qarshi bo'lgan, gunoh ishlar qilgan odamlar butunlay yo'q qilinadi.

“Avesto” da turli xil ma'lumotlar bor: jangchi-qahramonlar haqida afsonalar, bahodirlar va ajdodlar o'rtasidagi janglar, hayot va o'lim falsafasi, xalq og'zaki ijodidan kelib chiqqan ertaklar va boshqalar. Masalan, serjahl jodugar Axtyo va yosh turonlik Yoyshta haqidagi afsona juda ham qiziqarlidir.

Jodugar Axtyo odamlarni o'ldirish bilan mashhur bo'lgan. Yosh turonlik Yoyshta jodugarning 29 ta topishmog'ini topib, o'zi ham jodugarga topishmoqlar aytgan. Uning topishmoqlariga aniq javob berolmagandan so'ng serjahl Axtyo o'ldirilgan. Bu hikoyada zardushtiylarga dushmanlik qilgan turonliklar vakili birinchi marta yaxshi ma'noda adolatli hisoblangan.

Daryolar xudosi Arzvisur (Arzvizur) hamda taqdir va baxt xudosi Ashtning yordami bilan ularning janglari, kurashlari g'alaba bilan yaqinlashgan”

Ezgulik va ezgu ishlar inson hayotining mohiyati hisoblanadi. Kishilarning ezgulikka intilishi ma'naviy yetuklik mezonidir. Shu boisdan ezgu ishlarga

intilgan, ezgulik tantanasi uchun kurashgan, barchaga ezgulikni ravo ko'rvuchi otashparast Ahura Mazda - bosh iloh marhamatiga loyiq hisoblangan.

Zardushtiylikning axloqiy ta'limotida ezgu (yaxshi) amallar va ezgulik uchun kurash eng oliv insoniy burch hisoblangan. Ayniqsa har bir otashparastning o'z qavmi manfaati uchun kurashi nafaqat yakka shaxsning, balki jamoa va qavmning baxt-saodati garovi hisoblangan.

Oliy Iloh Ahura Mazda boshqalarga yaxshilik qilganlarga yaxshilik nasib etishini ta'kidlaydi: "o'zgalarni yaxshilikka olib borgan kimsalargagina yaxshilik nasib etadi".

Ahura Mazda olamda yovuz kuchlarga qarshi kurashish maqsadida ezgulikni aql-idrok bilan anglay oladigan insonlarni yaratadi.

"Avesto"da inson oliv darajaga ko'tarilgan xilqat. Odam shuning uchun ham qadrliki, Oliy Iloh Ahura Mazda tomonidan oxirgi - oltinchi kuni yaratilgan Insonning yaratilgan kuniga qadar uning uchun zarur bo'lgan barcha narsalar: bиринчи кун осмонни (havoni); иккинчи кун сувни; учинчи кун Яр (tuproq)ни; то'ртинчи кун о'simliklarni; бешинчи кун жониворларни yaratadi, ya'ni dastlab inson uchun nimaiki zarur bo'lsa, ularning barchasini muhayyo qilib, so'ngra azizu - mukarram insonning o'zini yaratadi.

Ahura Mazda insonning ezgulikka xizmat qilishida yordam beruvchi ko'zga ko'rinas qudratli ezgu kuchlar, ma'bud va ma'budalar (ilohlar) farishtalarni yaratadi.

Birgina zardushtiylikdagi Oliy Iloh Ahura Mazda, uning yaqin yordamchilari - oltita Amesha Spenta, muqaddas ruhlarning nomlari ma'nosig'a e'tibor bersak, bu nomlar mazmunida ham inson uchun muqaddas bo'lgan fazilatlar yotishini ko'ramiz. Masalan, Oliy Iloh Ahura Mazdaning ismi - "Ahura" - "buyuk" va "sarvar" ma'nolarini; "Mazda" esa "xushyor", "Dona", "ogoh" kabi ma'nolarni anglatadi.

Uning eng yaqin yordamchilari: Vohu Mana (Bahman); Asha Vahishta (Ardibihsht); Xshatra Varya (Shahrivor); Spenta Aramaeti (Isfandarmuz);

Xaurvatat (Xurdod); Ameretat (Murdod) nomlarining har biri insoniyat tomonidan ardoqlanadigan fazilatlarni ifodalaydi.

Vohu Mana - ezgu niyat, donolik degan ma'nolarni anglatadi va chorvachilik homiysi hisoblanadi. Go'yo Bahman odamlarni ezgulikka, ezgu fikr qilishga chorlaydi, yomon fikr va yovuz o'ylarni quvlaydi, yovuzlikka qarshi kurash olib boradi.

Asha Vahishta – to'g'rilik, rostg'o'ylik, haqiqat ma'nolarini anglatib, otashparastlarni to'g'rilikka chorlaydi, abadiy haqiqat tantanasi uchun kurashadi. U bor joyda haqiqat qaror topadi. Nohaqlikka qarshi kurash olib boradi. U yer yuzidagi, olovga homiylik qiladi.

Xshatra Varya - umid, qudrat ma'nolarini anglatadi. U ma'danlar homiysi bo'lib, bechora va g'ariblarni o'z panohida saqlaydi.

Spenta Armaeti - komillik, mukammallik, komil aql ma'nolarini anglatadi. U Ahura Mazdaning qizi sifatida qabul qilingan. Yer va dehqonchilik homiysi hisoblanganligi uchun ona xudo shaklida tasavvur qilingan. Spentalar orasida Isfandarmuz eng ardoqli ilohalardan biri hisoblangan. Chunki u oila va xonda-donga qut-baraka ulashgan.

Xaurvatat - salomatlik ma'nosini anglatadi. U hayot manbai hisoblangan suvga homiylik qiladi. Xurdod ham ona xudolardan biri hisoblananib, onalar kabi insonlar salomatligi uchun g'amxo'rlik qiladi.

Ameretat - umr boqiylik, abadiylik ma'nolarini anglatadi. O'simliklar dunyosiga homiylik qiladi. Ona xudolardan biri sifatida nafaqat er yuzida ezgulikning abadiy tantanasi uchun kurash olib borgan, balki ezgu kuchlar va ezgulikka xizmat qiluvchi insonlarning umr boqiyligi uchun ham xizmat qiladi.

Demak, Ahura Mazda va oltita Amesha Spentalarning asosiy vazifalari inson ximoyasi, inson kamoloti uchun kurash, insonlarning axloqiy fazilatlarini takomillashtirishdan iboratdir. Demak, Oliy Iloh Ahura Mazda va uning yordamchilarining nomlari mazmuniga e'tibor bersak, insonning azaliy orzu-umid-lari va qadriyatlarini ifoda etuvchi tushuncha va tasavvur yotadi.

"Avesto"da insonlarga foydali bo'lgan, ularning tirikchiligi uchun zarur bo'lgan barcha jonivorlar, o'simliklar, havo va zamin, suv va olovning o'z ilohalari bo'lib, ular o'zлари homiylik qiladigan narsalarni Axrimaning yovuz kuchlaridan himoya qilib turadi. Masalan, bulut, havo, suv, zamin, hayvon, o'simliklarning ilohalariga quyidagilar kiradi. Savanhi -hayvonlar ilohasi, Vyasya -urug' - qabila, qishloq ahli ilohasi, Frodot - Fshova - mayda hayvonlar, ilohasi hisoblanadi.

Farishta Asha homiy bo'lgan xonadonlarda Baxt tantana qilib, taqdir kulib boqadi. Rashn esaadolat hakami, rostlik, haq va haqqoniyat ilohasi sifatida moddiy olamni yomonlik, yolg'on va razolat, ablahlik va jaholatdan qutqarish uchun bu qabohatlarning asosiy sababchilari bo'lmish devlarga qarshi kurashadi...

"Avesto 'da turli xalqlar, qavmlar o'rtasidagi do'stlik, qardoshlik, tinchlik to'g'risida ham fikr yuritiladi. Masalan, Aryaman do'stlik, qardoshlik va osudalik ilohi sifatida talqin qilinadi. Aryaman so'zining asl ma'nosi ham do'st-birodar ma'nolarini anglatadi.

Zardushtiylik ta'lilotiga ko'ra olam qarama-qarshi kurashuvchi kuchlar makonidir. Qarama - qarshi kurashuvchi tomonlar o'zining kurashish imkoniyatiga ko'ra tabaqalashtirilgan holda bosqichma-bosqich joylashtirilgan.

Zardushtiylik o'zigacha bo'lgan qadimgi dinlardan yakka xudo - Ahura Mazdaga e'tiqod qilish g'oyasini ilgari surganligi bilan farqlanib turadi. Ahura Mazdaning barcha narsalarni yaratganligi va barcha narsalar ustidan hukmronlik qilishi yagona xudo e'tiqodidan dalolatdir. Lekin ezgu va yovuz kuchlar o'rtasidagi kurashda boshqa ikkinchi darajali ilohlarning qatnashishlari yakka xudo e'tiqodining ko'p xudolik e'tiqodi bilan almashinuvi olib keladi. Yakka xudolikka bir tomon dan qabilachilik turmushini kechirayotgan kishilarni ishontirish ancha mushkul bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomon dan, yakka xudolik g'oyasining nazariy jihatlari hali shakllanib ulgurmagan edi. Chunki yakka xudolik g'oyasini qabul qilishga kishilarning ong va tafakkuri tayyor emas edi.

Dunyo bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ezgulik va yovuzlikning kurashi sifatida talqin qilinadi. Bu qarama-qarshilik dunyoning azaliy mavjudligidan dalolatdir. Go'yo ezgu va yovuz kuchlar o'rtasidagi kurash dunyoning azaliyligi va taraqqiyoti sharti bo'lib ko'rindi. Qarama-qarshi tomonlarning kurashi ezgu va yovuzliklarning asl mohiyatini olib beradi. Otashparstlarga olam va odam, yaxshi va yomon,adolat va adolatsizlik, ezgulik va qabohat o'rtasidagi farq, ularning tabiat, jamiyat va inson hayotiga ta'siri va oqibati to'g'risida xabar beradi. Qarama-qarshi kuchlar borliqning kattadan-kichik zarrachasida mujassam, tirik va notirk tabiatni o'z domiga tortadi. Barcha voqeja va hodisalar, tabiat va jamiyat va inson ana shu kurashlar birligi va iskanjasida. Shu tufayli zardushtiylik qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni to'g'risidagi diniy-falsafiy ta'limot hisoblanadi.

Ahura Mazda - butun olamni yaratuvchi oliy iloh.

Yuqorida sanab o'tilgan oltita buyuk qudratga ega bo'lgan Amesha Speentalar.

**Ozar** - olovni qo'riqlovchi ma'bud.

**Anaxita** - suv ma'budasi.

**Rashn** - adolat hakami, adolat va haqiqat ilohi. Moddiy olamni yolg'on, razolat, ablahlik va razilliklardan qutqaruvchi ilohi.

**Rasastat** - javonmardlik. (mardlik) ilohi

**Aryaman** – do'stlik, qardoshlik va osudalik ilohi.

**Savanhi** - hayvonlarning buyuk himoyachisi.

**Vyasya** - urug' – aymoq ilohi.

**Zantuma** - qabila ilohi.

**Ardvi** – hosildorlik ilohi.

**Nmanyax** - uy-joylarni qo'riqlovchi ilohi.

**Mitra** - quyosh xudosi, u tavfiqlik va o'z ahdida sobit turuvchi kishilarning himoyachisi, betavfiq, xiyonatkor, yolg'onchi va subutsiz kimsalarga qarshi kurashuvchi iloh.

**Asha** - taqdir va baxt ma'budasi.

**Surush** - itoatkorlik va halollik ma'budasi.

**Vartrangna** - urush va g'alaba ma'budi

**Ama** - kuch-qudrat va bahodirlik ma'budi

**Chista** - ilmu-donishmandlik ma'budasi.

**Savaka** - shodu - xurramlik ma'budasi, ilohiy ne'matlar qo'riqchisi.

**Mehr** - yaylovlar va o'tloql'ar ma'budasi.

**Naryusang** - ilohiy xabarlar jarchisi.

"Avesto"da yuqorida ko'rsatilgan ezgu kuchlarga qarshi Axriman boshchiligidagi yovuz kuchlar va yovuzlik hukmdorlari qarama-qarshi qo'yiladi.

**Axriman** - yovuzlik, nopolik, razillik va jabru-sitamlar hukmdori.

**Mavrak** - yalqovlik, ish yoqmaslik ma'budasi.

**Ashmug'** - aldamchilik ma'budasi, so'z o'g'irlab, fisqi - fasod va adovat o'yg'otuvchi dev.

**Marishana** - zavol va faromushlik ma'budi.

**Oz** – ochko'zlik ma'budi.

**Duruj** – yolg'onchilik ma'budi.

**Dvarshinina** - xiyonatkorlik va nomardlik ma'budasi.

**Patyora** - ofatlarni tug'duruvchi ma'buda.

**Sainiy** - kasalliklar ma'budasi.

**Kaita** - qabihlik va badkirdorlik ma'budi.

**Xrafstra** – zararkunanda jonivorlar va hashoratlar homiysi.

**Bod** - shamol va yelvizak ma'budi.

Zardushtiylar tasavurriga ko'ra Ahura Mazda va boshqa ezgulik xudolari Xoro deb nomlanuvchi tog'dagi Olqish xona, ya'ni maqtovlar uyi, (jannatning nomi) da yashaydilar. Tavfiqli, ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amallar egalari vafot etganlaridan so'ng ana shu jannatmakon joyda ilohlar bilan birgalikda yashaydilar.

Zardushtiylikda ham inson vafot etganidan so'ng jannat yoki do'zax uning makoniga aylanadi degan tasavvur mavjud bo'lib, inson jannatdan umidvor qilinadi. Inson vafot etganidan so'ng uning ruhi bilan hisob-kitob qilinadi. Haqiqat ilohi Rashn marhumning o'tkinchi dunyodagi qilmishlarini tarozigra tortib ko'radi. Agar jannat ato qilingan bo'lsa, Xoro tog'idagi xudolar yashaydigan makon – Olqish xonaga yuboriladi. Agar do'zax ato qilingan bo'lsa, Axriman va yovuz kuchlar makoni bo'lган abadiy muzlik – do'zaxga tashlanadi. Ajrim davrida ahdu-paymon ilohi Mitra va itoatkorlik ilohasi Sraxoshalar ham qatnashadilar, deb hisoblangan.

"Avesto"da insonga ezgulik va yaxshilik keltiruvchi kuchlar bilan birga yovuzlik va yomonlik keltiruvchi kuchlar to'g'risida, ularning inson va butun olamga keltiruvchi yomonliklari to'g'risida ham to'xtalib o'tiladi. Masalan, Bod-shamol ilohi to'g'risida quyidagi rivoyat beriladi. Go'yo Bod dastlab suvni bulutlar shaklida turli mamlakatlarga, odamlar makon qurgan hududlarga yo'llab turgan. Keyinchalik yovuz kuch - devlar Bodni afsun qiladilar. Bod o'zining kuchiga nihoyatda erk beradi, mendan ko'ra kuchliroq va qudratliroq jonzot yo'q deb hisoblaydi, yo'lda uchraydigan barcha narsalarni ag'dar-to'ntar qiladi, yerusko'kni zulmat qoplaydi. Girshasp (Avesto"dagi qahramonlardan biri) uni chilparchin qilib bo'yso'ndiradi va Ahura Mazda amrini bajarishga qasam ichdiradi. Albatta Girshasp Bodni bo'ysundirgani bilan undagi ayrim ziddiyatli unsurlari, otdan tushsa ham egardan tushmasdan, o'ziga bino qo'yib yuraveradi, va hiylagar devlar domiga ilinadi, hamda ularning xizmatida bo'ladi. Devlar izmiga tushib qolgan yelvizak, devlar jodusi ta'siri ostida kishilarni turli oyoq-bo'g'im kasalliklariga duchor qiladi. Shuning uchun ham yelvizak natijasida paydo bo'luvchi kasalliklar - "bod" va "dard" (dard tegdi) yelvizakning odamlarga keltiradigan zarari, deb tasavvur qilingan.

Demak ezguliklar, ya'ni ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amallarning mohiyatini anglab yetmagan hayot mashaqqatlariga bardosh bera olmagan, uning yengil - yelpi yo'llarini tanlagan. O'z hatti-harakatlari (noaxloqiy hatti-harakatlari) bilan nafaqat insonlarga, balki butun olamga ziyon - zahmat yetkazuvchi kimsalarning yovuz kuchlar tarafiga o'tib olishi va axloqiy tubanlik hamda tanazzul botqog'ining kengayishiga yordam berishi, buning natijasida ezgu kuchlarning aziyat chekishi masalalari zardushtiylik dinining axloqiy mohiyatini tashkil etadi. Shuning uchun ham "Avesto"da insonning o'z-o'zini ehtiyyot qilishiga da'vat nihoyatda kuchli. Yovuz kuchlar ta'siriga tushmasdan o'z-o'zini asrash insonning buyuk insoniylik qudrati. G'azabla nafs - hirsga berilish - yovuzlik belgisi. Zero, yovuzlik - aqlli mavjudot - insonga xos bo'limgan xislat.

## **II Bob Zardushtiylik va milliy ma'naviy qadriyatlar**

### **2.1. Zardushtiylikda axloqiy me'yorlarning yoritilishi.**

Mustaqillik tufayli mamlakatimizda nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy merosimizni o'rganish imkoniyati yuzaga keldi. Bunga ajdodlarimizning islomgacha ibodat manbai bo'lib kelgan zardushtiylik va uning muqaddas kitobi hisoblanuvchi "Avesto" ni kiritishimiz mumkin.

Zardushtiylik dini uzoq davr mobaynida shakllanish jarayonini boshdan kechirgan. "Avesto" ni chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, otashparastlik keng yoyilgunga qadar urug' qabilalar o'rtasida ibtidoiy turmush tarzi, urug'-aymoqchilik qonunlari ustunlik qilgan. Qavmlar tabiat hodisalari, hayvonlar, jonsiz predmetlar, ajdodlar ruhlariga e'tiqod qilganlar. Qavmlar o'rtasida animizm, magiya, totemizm, fetishizm va qavm (shomonlik) ga e'tiqod qilish keng yoyilgan. Ibtidoiy an'analarga qat'iy amal qilingan. Suvloqlar va yaylovlarni talashish xunrezliklarga olib kelgan. Har bir qabila yoki urug'ning o'z diniy e'tiqodi bo'lganligi sababli ular o'z e'tiqodini boshqalarga singdirishga intilgan va bu kelishmovchiliklar qon to'kishlargacha borib etgan.

Zardushtiylik dinining asosiy maqsadi urug'- qabilachilik turmush tarziga barham berib qarindoshlik, do'stlik, birodarlik, o'zaro hamkorlik va tinchlikni ta'minlovchi yagona davlatchilik g'oyasini targ'ib qilishdan iborat bo'lgan. Shu boisdan zardushtiylik dini turli qabilalar o'rtasidagi o'zaro urush - janjallarni qattiq qoralaydi, barcha qabila va urug'doshlarni qon - qarindoshlik rishtalarini yanada mustahkamlashga chaqiradi. Zardushtiylik diniga e'tiqod qilmoqqa ahd qilgan inson jangu – jadallarni qoralab qon- qarindosh bo'lib yashashni targ'ib qiluvchi otashparastlikka e'tiqod qilgan.

"Men mazdaparast, zardushtiy bo'lmojni istayman. Men bu dinga bog'langanman, unga ishonaman. Men ezgu niyat bilan niyat qilmoq, ezgu so'z bilan so'zlamoq va ezgu amal bilan amal qilmoqqa roziman."

Men jang - jadallarni, urush aslahalarini bartaraf aylab, qarindoshlik rishtalarini payvand qilmoqqa farmon berguvchi mazda - parastlik diniga

ishonaman. Bu pok din hozirgi va kelajak dinlar orasida eng buyuk, eng oliv va eng go'zal dindir. Ahuraviy zardushtiy dini ...<sup>1</sup>

Zardushtiylik diniy – ma'naviy e'tiqod sifatida qadim ajdodlarimizning buyuk ma'naviy qadriyatlari, qarashlari, his tuyg'ulari, orzu- umidlarini mujassamlashtiruvchi asosiy manba hisoblanadi. Unda ma'naviy qadriyatlarimiz, ya'ni urf- odatlar, marosimlar, rasm - rusumlar o'z ifodasini topgan. Xalqning azaliy orzulari hisoblangan axloqiy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, diniy, badiiy tafakkurlari jamlangan. O'zini qurshab turgan moddiy olam, uning qonunlari, voqeа va hodisalari to'g'risidagi mifologik, diniy va ilmiy falsafiy qarashlari umumlashgan holda namoyon bo'ladi.

Inson va olamning o'zaro munosabati masalasi eng oliv qadriyatlardan biri sanaladi. Eng avvalo odamni o'rab olgan dunyoning yaratilishi uning qonuniyatlari, bu olamning odamga ko'rsatadigan ta'siri, olamdagи barcha narsalar, va odamning barcha hatti - harakatlari o'rtasidagi o'zaro mutanosiblik hamda o'zaro aloqadorlik sabablari, ular natijasida kelib chiqadigan oqibatlar masalasi barcha asotiriy tafakkur va diniy e'tiqodlar singari zardushtiylik dinining ham falsafiy mohiyatini tashkil etadi. "Avesto" da insonning tabiatga bo'lgan munosabati to'g'risida alohida to'xtalib o'tiladi. Tabiat va uning voqeа hamda hodisalariga, yerus- zaminga bo'lgan, o'simliklar- u, giyohlarga, hayvon- u va boshqa jonzotlarga bo'lgan munosabat tabiatni sof holda saqlash, yani, yer, suv va havoni iflos qilmaslik alohida uqtiriladi. Tabiatga salbiy munosabatda bo'lish, uning qonunlarini mensimaslik katta gunohlardan sanalgan.

Zardushtiylikda tabiatni yashnatish, uni asrab-avaylash, uning o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan qonun va qonuniyatlarini buzishdan ehtiyyot bo'lish masalasiga alohida e'tibor beriladi. "Avesto"da ko'rsatilishicha, odamlarning tabiat qonunlarini mensimasligi, birinchidan, Axrimaniy yovuz kuchlarga yordam berish, ya'ni ezgu va yovuz kuchlar kurashida yovuz kuchlar nisbatini oshirishga yordam

---

<sup>1</sup> „Avesto“. Tarixiy- adabiy yodgorlik. T:, Sharq.2001 y,57-bet.

berish bilan barobar, deb ta'kidlansa, ikkinchidan, tabiat qonunlari mutanosibligining buzilishi insoniyatning o'zini tanazzulga, ekologik halokatga olib borishi sifatida talqin etiladi.

"Avesto"da ta'kidlanishicha, kishilarning nafaqat iymon-e'tiqoddan mahrum bo'lishi, balki o'zini qurshab turgan tabiatga faqat iste'molchi sifatida yondoshuvi, tabiiy muhit muvozanatini buzishi, ekologik halokat - qiyomat qoyim (rastoxez), zamonaning tugashiga olib keladi.

Osmondan yerga bronza eritmasi yog'iladi, yerning osti va usti yonib ketadi. So'ngra halok bo'lganlar butun olam va barcha o'lganlar qayta tiriladi. Hayot yangitdan boshlanadi.

Ko'rib turibmizki, tabiiy halokat odamlarning atrof - muhitga salbiy munosabati natijasida vujudga kelishini, tabiatni asrab-avaylash zarurligini 2,5 ming yil oldin yashab o'tgan ajdodlarimiz bashorat qila olganlar va bu tasavvurni o'zlari uchun ibodat qonuniyati - diniy e'tiqodga singdira olganlar.

Olam va odam doimo o'zaro aloqada ekanligi, olamda ro'y bergan barcha hodisalar odam organizmi (jismi)ga ta'sir ko'rsatishi, olam va odamning yagona vujud ekanligi, odamning tabiatning turli hodisalari va predmetlari shaklida qayta tirilishi "Avesto" ning "Vandidot" qismining 17 fargard, 5- bandida quyidagi shaklda beriladi:

„Odamzot "kichik olam" (olami sag'ir", "jahoniyo ko'chak")-dir Uning vujudidagi har bir unsur tabiatda ham mavjud. O'limdan so'ng yana o'sha tabiatdagi unsurlarga qaytish qiladi. Rastoxez - qiyomat ro'y berganda so'ngaklari tuproqdan, qoni suvdan, sochlari giyohlardan, tirikligi olovdan qaytib keladi<sup>1</sup>.

Birgina dunyoning ikkiga: yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik, hayot bilan o'lim, yorug'lik bilan zulmatga bo'linish va ular o'rtasida kurashda yaxshilik, ezgulik, hayot va yorug'likning g'alaba qilishi to'g'risidagi tasavvurlarning o'ziyoq, qadim ajdodlarimizning insoniyatning azaliy orzusi hisoblangan ezgu kuchlar va ezgulik haqidagi g'oyalari o'ta mukammal,

<sup>1</sup> „Avesto“. Tarixiy- adabiy yodgorlik. T.: Sharq.2001 y, 159-160 bet.

adolatning tantana qilishi to'g'risidagi qarashlari esa bag'oyat buyuk bo'lganligini ko'rsatadi.

Zardushtiyarning dunyo va uning yaratilishi, inson shaxsining kamol topishi, azaliy orzu bo'lib kelgan ezgu kuchlar tantanasi to'g'risidagi dunyoqarashi "Avesto"da o'z ifodasini topgan.

Zardushtiylik insoniyat uchun o'ta e'zozli va ma'naviy qadriyat darajasiga ko'tarilgan to'rt azaliy unsur: tuproq (yer) suv, olov va havoning muqaddasligi to'g'risidagi ta'limot bo'lib, bu unsurlarning keyingi dinlar - nasroniylar va islomda ma'naviy qadriyat darajasiga ko'tarilishiga turtki bergan.

Shuningdek, zardushtiylikda umuminsoniy ma'naviy- axloqiy qadriyatga aylangan va inson axloqining asl mohiyatini tashkil etuvchi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal to'g'risidagi g'oyalar ilgari suriladi. Insoniyat uchun doim aziz va ardoqli bo'lgan ma'naviy qadriyatlar ajdodlardan avlodlarga nihoyatda ehtiyotkorlik bilan og'zaki va yozma manbalar orqali etkazib berilgan. Shuning o'ziyoq insoniyat ma'naviy qadriyatlarga qay darajada ehtiyotkorlik bilan yondoshganligi va uni e'zozlaganligini ko'rsatadi.

Milliy ma'naviy - iqtisodiy qadriyat hisoblangan tuproq, ona yer, ona zaminga bo'lgan munosabat zardushtiylikda ilohiy nizom tusini olgan. Ekin yerlarni ko'paytirish va uni asrab-avaylash, uni muqaddas deb sajda qilish, yerga zarar keltiruvchi turli xil yovuz kuchlar - Ahrimanning yordamchilari hisoblangan va yerdan ko'plab in qurban qurt - qumursqalar, ilonlar, kalamushu sichqonlar, bo'ri -yu tulkilar va boshqa zararkunandalarga la'natlar o'qilgan.

Zardushtiylikdagi eng oliy qadriyatlardan biri insonning atrof- muhit - suv, olov, yer va havoga bo'lgan munosabati masalasidir. "Avesto"da ana shu to'rt oliy unsurga nafaqat qurbanlik berish to'g'risida to'xtalib o'tiladi, balki ularga duo, olqish aytilib, inoyat ko'rsatishlari so'ralsan. Masalan, Olov (Otar) eng buyuk e'zozga sazavor buyuk qadriyat sanalgan. Unga nafaqat quruq o'tin, hayvon yog'i va xushbo'y o'simlikning quritilgan bargi qurbanlik sifatida berilgan, balki

qurbanlik berilayotgan paytda maxsus duolar o'qilgan va o'zlariga farovonlik, osuda hayot, uzoq umr, farzandlariga qobililik ato qilishi so'ralsan:

-,,Ey, Ahura Mazdaning Ozari! (olovni qo'riqlovchi iloh nomiga)

Seni olqishlaymiz, seni e'zozlaymiz: eng yaxshi qurbanliklar, nazr-niyozlar keltirmoqni istaymiz.

Sen jamiyki alqov va sharafga munosibsan. . .

Ey, Ahura Mazdaning Ozari!

Qo'limizdagi o'tin senga bo'lsin!

Uning tutunlari senga bo'lsin!

Uning xurushlari senga bo'lsin!

O'tin g'aramlari senga bo'lsin!

Bir go'zal zot seni asraguvchi bo'lsin!

Bir binogoh, senga nigohbon bo'lsin!

Sen bu xonumonda yorug'lik bo'l!

Sen bu xonumonda abadiy nur bo'l!

Sen bu xonumonda munavvar bo'l!

Uzoq-uzoq zamonalr to rastoxez (qiyomat) ga qadar poydor bo'lib, sen abad - abad, to mahshar kuniga dovur ezgu va qudrat sohibi bo'l!

Ey, Ahura Mazdaning Ozari.

Menga zudlik bilan kushoyish bag'ishla!

Menga zudlik bilan panoh ber!

Menga zudlik bilan farovon tiriklik va panoh baxsh et!

Menga zudlik bilan uzoq umr, donishmandlik, go'zal til, xushyor ruh, o'lmas va farovon aql-xirad baxsh ayla!

Olovning muqaddasligi nafaqat unga beriladigan qurbanlik bilan ajralib turgan, balki olov nomi bilan (shu jumladan suv nomi bilan ham) qasam ichilgan.

Agar bu qasam buzilsa, qasamni buzgan odam o'ta katta gunohkor hisoblangan. Qasamxo'r odam hech qachon afv etilmagan. Bu hususda "Avesto"ning "Vandidod" qismida shunday deb ta'kidlanadi:

.... Suv va yonib turgan olov qoshida qasamini buzgan odamning yozug'i afv etilmasdir. U ikkinchi da'fa tavbaga ko'z tutaoalmagay.

Bu gunohning do'zaxda topqusi ajri dunyodagi jamiyki dardlardan qattiqroqdir. Bu azob odamzot vujudini o'tmas bir anjomda kesib burdalashdan-da dahshatliroqdir.

Shu boisdan olov bilan bog'liq bo'lgan ayrim irim - sirimlar ham zardushtiylikdan bizgacha etib kelgan milliy-ma'naviy qadriyat hisoblanadi. Ayrim marosimlarda sham yoqib qo'yish, olov ustidan xatlash, yo'rgaklangan chaqalojni gulxan ustidan u yoq bu yoqqa otib olish, olov atrofida kelin - kuyovni aylantirish, olov atrofida bazm uyuştirish, chavandozlarning katta gulxan alangasidan sakrab o'tishlari va xokozolar bizgacha yetib kelgan irim-sirim qadriyatlari hisoblanadi. Mazkur xatti-harakatlarning asosida soflanish, begunoh, ekanini isbotlash kabi ma'nolar yotadi. Zardushtiylik e'tiqodiga ko'ra olov haqiqatni yolg'ondan ajratib beruvchi eng ishonchli vositadir. Masalan, kelinni kuyovnikiga tushirib kelayotganda olov atrofida uch marta aylantirib o'tkazishda yangi (albatta begona) oila xonadonga kelayotgan kelinning sof holatda kirishi, ya'ni uning kiyimlariga ilashib kelgan turli yovuz ruhlarning, ins - jinslarning olovda yonib ketishi to'g'risidagi tasavvur yotadi.

Insoniyat qadim - qadimdan o'z tirikchiligining asosiy manbai va vositasi sifatida nonni e'zozlab kelganlar. Nonga bo'lgan munosabat insoniyatning buyuk qadriyatiga aylangan. Insonning bolalik chog'laridayoq uning ongiga nonga bo'lgan hurmat ruhi singdirilgan.

Non mazdaparastlar marosimlarining oliy ne'mati hisoblangan. Hatto nonning tuzilishi o'ziga hos mazdaviy ramzlarni anglatgan. Itoatkorlik va halollik ma'budasi Surushga bag'ishlab o'tkaziladigan marosimda drvana (supra) va bir parcha non niyoz sifatida keltirilgan. Supra va non o'ziga xos ramziy ma'noga ega

bo'lgan. Bug'doy unidan tayyorlangan non jahondagi barcha narsalardan ustun sanalgan. Non gardishi (aylanasi) yer yuzini o'rab olgan tog'larning ramzi; nonning yuzi, kengligi, sathi Quyosh ramzi hisoblangan. Non tayyorlanayotganda supra ustiga uch dona xushbo'y cho'p qo'yilgan. Bu cho'plar ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalni anglatgan. Nonni teskari qo'yish Quyosh va Yerni teskari qo'yish bilan baravar bo'lgan. Bu esa Ahuraviy gunoh hisoblangan.

Demak, otashparastlik dinidagi ko'pgina muqaddas narsalar inson mehnati natijasida bunyod etiladigan buyuk ne'mat - nonda mujassamlashib kelgan. Nonga bo'lgan munosabat ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy qadriyat sifatida bizgacha yetib kelganligi bejiz emas. Kattalarning kichiklarga "Nonni oyoq osti qilgan xoruzor bo'ladi", "Ko'r bo'ladi", deb ta'kidlashlari, nonni teskari qo'yib bo'lmasligi, teskari tishlanmasligi, onalarning harbiy xizmatga ketayotgan farzandlariga qolgan rizqini o'zi kelib yesin, nasiba yetaklab kelsin deb non tishlatib qolishlari, nondek bir-biriga aziz bo'lsinlar, deb kelin-kuyovga non va tuz tutishlari, turmushga chiqmagan qizlarga baxti ochilsin deb, to'y nonidan nasiba keltirishlari, yomon tushlar ko'rmasin, ins-jinslar ziyon-zahmat yetkazmasin deb himoyasiz murg'ak chaqaloqlarning yostig'i tagiga non qo'yish, nonni isrof qilganlarni "non ko'r qilgur" deb qarg'ashlar azaliy qadriyat sifatida bizgacha yetib kelganligi bejiz emas.

"Avesto"da insonning moddiy ne'matlar yaratishi, ya'ni yerga ishlov berib, dehqonchilik qilishi eng oliv qadriyat va savob ish deb hisoblanadi. Odam halol mehnat qilib qanchalik moddiy boyliklarni ko'paytirsa, shunchalik yovuz kuchlarni mahv etgan bo'ladi, deb ta'kidlanadi.

...Zardusht Ahura Mazdadan so'raydi:

-Ey, olamni yaratgan zot! Ey, haqiqat.»

Zaminni hammadan ko'ra baxtiyorroq bo'lgan dunyodagi uchinchi joy qayer?

Ahura Mazda javob berdi:

-Ey, Sipiytmon Zardusht!

Bunday joy bir Ashavan hammadan ko'proq bug'doy, yog' va mevali daraxtlar ekkan, odamlar quruq yerlarga suv chiqargan, suvli yerlarni shudgor qilgan zamindir.

...-Ey, olamni yaratgan Zot! Ey, Haqiqat!

Zaminni hammadan ko'ra ko'proq baxtiyor qilgan shaxs kim?

Ahura Mazda javob berdi:

-Ey, Sipiytmon Zardusht!

U hammadan ko'p bug'doy, giyoh, va mevali daraxtlar ekkan zotdir! U quruq yerlarga suv chiqargan va suvli yerlarni shudgor qilgan zotdir<sup>1</sup>.

Shu boisdan ham yer (tuproq) muqaddas hisoblangan. O'lgan odamni nafaqat yerga ko'mish ta'qiqlangan. Hatto odam yoki it o'lib qolgan yerga bir yilgacha dehqonchilik qilish mumkin bo'lмаган. Agar kimda- kim u yerga ekin eksa, uning jazosi katta bo'lib, u maxsus jazolovchi qamchinlar bilan 20 martadan 40 martagacha savalangan.

Xalqimizning azaliy aqidasisiga ko'ra har bir kishining saharlab uyqudan uyg'onishi oilasiga keladigan baraka garovidir. Kimki erta tursa xudo unga baraka ato qilarmish. Bu aqida "Avesto" da ham o'z talqinini topgan.

Azaliy qadriyatimizga ko'ra yalqovlik, dangasalik va ishyoqmaslik qoralab kelingan. Tong sahar turib mehnat qilish, uy yumushlari bilan shug'ullanish ro'zg'or farovonligi va serbarakaligining sababi deb hisoblangan. Er-xotindan qaysi biri uyqudan erta tursa jannatga tuyassar bo'ladi deb hisoblangan. "Avesto"-da ko'rsatilishicha xo'rozlarning ertalab qichqirishi otashparastlarni yovuz dev Bushasp sehri va ta'siridan xalos qiladi. Ular odamlarni sergaklikka chorlaydi. Erta saharlab turgan kishilarga baraka tilaydi.

"-Ey, insonlar! Oyoqqa qalqing! Devlarni itqitib tashlaguvchi eng go'zal Ashax - Haqiqatni vasf aylang.

Dev Bushasp insonlarga shunday deydi:

---

<sup>1</sup> G' Soatov. Zardushtiylik madaniyati va ma'naviyati. Qarshi. "Nasaf" nashriyoti. 2004, 11-bet.

"Uxla! Uyquga cho'm! Hali uyg'onish fursati yetmadi!....

Xo'roz yana deydi:

- Hargiz bu uchlikda sustkashlik qilma: ezgu fikratda, ezgu amalda va ezgu kalomda.

Ushbu qabih uchlikdan zinhor yuz bur: yomon fikratdan, yomon amaldan, yomon kalomdan!...<sup>1</sup>.

"Avesto"da eng muhim moddiy va ma'naviy qadriyatlardan biri sanalgan jamoa hayoti, uning ishlab chiqarish jarayonidagi o'midan tortib oila azolarining o'zaro qon-qarindoshlik aloqalari va axloqiy - ma'naviy munosabatlari ham o'z ifodasini topgan. Jamoa a'zolarining ishlab chiqarish jarayonida tabiatga bo'lган munosabatlari yakka shaxs axloqiy qarashlari darajasidan oila va umumjamiyatning axloqiy tamoyillari darajasiga ko'tariladi. Shu boisdan Ahura Mazda yaratgan yetti narsa: yer, suv, olov, havo, o'simliklar, hayvonot olami va insonga bo'lган munosabatlar umuminsoniy qadriyat darajasiga ko'tarilib boradi. Tabiatdagi barcha tirik va notirik narsalarga insoniy munosabat muqaddas burchga aylanadi.

Eng buyuk qadriyatlarimizdan biri hisoblangan bayramlarimizning vujudga kelishi ham zardushtiylik diniga bevosita bog'liqdir. Masalan, Navro'z bayramini olib qarasak uning asosida ham quyi olamning va birinchi insonning xudo Ahura Mazda tomonidan yaratilishi afsonasi yotadi. Beruniyning fikricha: "...shu kuni xudo quyi olamni yaratib, Qayumarsni unga podshoh, qilgan va "Navro'z" uning "jashni", ya'ni hayiti bo'lган"<sup>2</sup>. Afsonalarda yozilishicha, xudo olamni olti kunda yaratgan, dastlab barcha narsalar jonsiz va harakatsiz bo'lган. Ahura Mazda olamni yaratib bo'lgach, ularga jon ato qiladi va barcha narsalarning harakatini boshlab beradi. Xuddi mana shu hayot belgilangan kun - olamning birinchi nurafshon bo'lган kuni - quyosh yorug'idan butun olam yorishgan. Tiriklikning birinchi kuni hisoblangan.

<sup>1</sup> G' Soatov. Zardushtiylik madaniyati va ma'naviyati. Qarshi. "Nasaf" nashriyoti. 2004,12-bet.

<sup>2</sup> Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. 1- T.T:1969 y.253-bet.

X- asr oxiri va XI asr boshlarida yashab ijod etgan Abulqosim Firdavsiy ham o'zining "Shohnoma" asarida Qayumars shohning taxtga o'tirgan kuni quyoshning hamal burjiga kirib qolgan kunida ro'y bergan deb ta'kidlaydi:

"Hamal burjiga kirib qolganda oftob,

Jahon yorib ketdi, nurlanardi ob.

Yer yuzi yosharib, chechak taqardi.

Qayumarsga jahon shodlik buyurdi,

Ilk bora manzilin tog' ichra qurdi..."<sup>1</sup>

Bu misralarda ham Qayumars birinchi inson va birinchi shoh, sifatida quyosh hamal burjiga kirgan kun - bahorgi teng kunlikda paydo bo'lganligiga ishora qilinadi. Demak, insoniyat va jamiyatning paydo bo'lishi yangi kun - "Navro'z" ga to'g'ri kelayotganligiga ishora qilinadi.

Ikkinchi bir rivoyatga ko'ra, Zardusht bu bayramni ilohlardan biri "Asha-Vahishta" ("Eng Odil") va olovga bag'ishlab, bahorning kirib kelishi, ya'ni bahorgi teng kunlikda o'tkazgan. Bu bayram - bayramlarning eng so'nggisi sifatida, dunyoning so'nggi kuni - "Asha" ("Adolat") ning uzil - kesil tantana qiladigan kunini anglatadi. Shu bilan birga bu kun abadiy hayotning yangi kuni bo'lib qoladi. Bu bayram yilning "Ahura" ("Hukmron") davrining - yozning boshlanganligidan dalolat beradi hamda yovuz ruhlarning har yillik mag'lubiyatini nishonlashdan iborat bo'lgan.

Demak, dastlabki paytlarda olovga bag'ishlab tashkil etilgan, bu bayramning bahorgi teng kunlikda o'tkazilishidan asosiy sabab, shu kundan boshlab kunlar isiy boshlagan. Natijada olov - issiqning hukmronligi boshlandi degan tasavvurlar vujudga kelgan. Hattoki, dasht - sahroda yashovchi (chorvachilik bilan shug'ullanuvchi)lar ham, bu kundan boshlab olovga nisbatan kamroq, ehtiyoj sezal boshlagan. Ahura Mazdaga bag'ishlanishiga sabab esa, ikkita bir-biriga qarama qarshi hodisalar - yahshilik bilan yomonlik, yorug'lik bilan qorong'ulik, issiq bilan

---

<sup>1</sup> Firdavsiy. Shohnoma. Birinchi kitob. T. 1975 y, 707-bet.

sov uqlik, hayot bilan o'lim o'rtasidagi, ya'ni Ahura Mazda bilan Axriman o'rta-sidagi kurashda Ahura Mazda bahorgi teng kunlikka kelib g'olib chiqqan, degan tasavvurlar mavjud bo'lган. Chunki, qish fasli ularning fikricha Axriman bo'lib, kishilarga o'xshab kulfatlarni - qorong'ulikni (chunki kunduzi qisqa bo'lган), sovuqni, o'limni olib kelgan (va sovuqdan kishilar ko'proq, kasal bo'lганlar, qishda nafaqat odamlar, balki hayvonlar ham oziq - ovqatdan qiynalganlar, go'yo tabiat o'lган).

Ma'naviy qadriyatlardan biri hisoblangan irim-sirimlarga bo'lган munosabat ham zardushtiylikda muhim o'rın egallaydi. Masalan, hozirgi kuniimizgacha saqlanib kelinayotgan va nihoyatda e'tibor bilan qaraluvchi, soch va tirnoqqa munosabat bilan bog'liq irimlar olingan soch va tirnoqning oyoq osti bo'lishiga yo'l qo'ymaslik zardushtizm unsurlaridir.

Zardushtiylik e'tiqodiga ko'ra, tanadan ajralib chiquvchi va ajratiladigan barcha narsa murdor hisoblanib, yovuz ruhlar uchun kuch baxshida etuvchi oziq va vosita hisoblangan. Demak, tanadan judo bo'lган soch yoki tirnoq Axrimaning yovuz kuchlari, hamda bu kuchlarga xizmat qiluvchi yovuz niyatli kishilarga (soch va tirnoq evaziga) ziyon - zahmat yetkazish vositasiga aylangan.

Soch va tirnoqning doimo o'sib turishi, agar vaqtida olib turilmasa insonni (odamni) hunuk qilib qo'yishi zardushtiylikdagi alvasti va ajina to'g'risidagi tasavvurlarga borib taqaladi. Zardushtiylikda alvasti va ajina Axrimaning eng yaqin yordamchilari hisoblangan. Shuning uchun ham biz sochi va tirnog'i o'sib ketgan odamni bejiz alvastiga o'xshatmaymiz.

Zardushtiylikda soch va tirnoqni olgach, ma'lum bir rasm-rusum o'tkazilgan. Rasm-rusumsiz soch yoki tirnoq olinmagan. Soch va tirnoqni rasm-rusumsiz kovak yoki chuqurga to'kish Axrimaning yaqin yordamchilari hisoblangan devlarni xursand qiluvchi qabih va ashaddiy gunohlardan biri hisoblangan.

"Avesto"da olingan soch va tirnoqlarni chuqur qazib unga ko'mish rasm-rusumi hamda bu rasm-rusumlarni nihoyasiga etkazish davrida o'qiladigan duolar ham keltiriladi. Mazkur rasm-rusumdan ko'zlangan maqsad va uning oqibati

insonning tashqi tabiat bilan o'zaro aloqadorlikda ekanligini hamda uning jismi va keyingi hayoti to'g'risida fikr yuritiladi. Soch va tirnoqni olgan kishiga quyidagi ko'rsatma beriladi: ...."qattiq yerdan o'n barmoq xajmida, muloyim yerdan o'n ikki barmoq xajmida chuqur qaz; o'sha soch va tirnoqlarni uning tubiga tashlab yubor..."

Ezgulik va ezgu ishlar inson hayotining mohiyati hisoblanadi. Kishilarning ezgulikka intilishi ma'naviy yetuklik mezonidir. Shu boisdan ezgu ishlarga intilgan, ezgulik tantanasi uchun kurashgan, barchaga ezgulikni ravo ko'rvuchi otashparast Ahura Mazda - bosh iloh marhamatiga loyiq hisoblangan.

Zardushtiylikning axloqiy ta'limotida ezgu (yaxshi) amallar va ezgulik uchun kurash eng oliy insoniy burch hisoblangan. Ayniqsa har bir otashparastning o'z qavmi manfaati uchun kurashi nafaqat yakka shaxsning, balki jamoa va qavmning baxt-saodati garovi hisoblangan.

Oliy Iloh Ahura Mazda boshqalarga yaxshilik qilganlarga yaxshilik nasib etishini ta'kidlaydi: "o'zgalarni yaxshilikka olib borgan kimsalargagina yaxshilik nasib etadi".

Ahura Mazda olamda yovuz kuchlarga qarshi kurashish maqsadida ezgulikni aql-idrok bilan anglay oladigan insonlarni yaratadi.

"Avesto"da inson oliy darajaga ko'tarilgan xilqat. Odam shuning uchun ham qadrlik, Oliy Iloh Ahura Mazda tomonidan oxirgi - oltinchi kuni yaratilgan Insonning yaratilgan kuniga qadar uning uchun zarur bo'lgan barcha narsalar: birinchi kun osmonni (havoni); ikkinchi kun suvni; uchinchi kun Yer (tuproq)ni; to'rtinchi kun o'simliklarni; beshinchi kun jonivorlarni yaratadi, ya'ni dastlab inson uchun nimaiki zarur bo'lsa, ularning barchasini muhayyo qilib, so'ngra azizu - mukarram insonning o'zini yaratadi.

Ahura Mazda insonning ezgulikka xizmat qilishida yordam beruvchi ko'zga ko'rmas qudratli ezgu kuchlar, ma'bud va ma'buda-lar (ilohlar) farishtalarni yaratadi.

Demak, Ahura Mazda va oltita Amesha Spentalarning asosiy vazifalari inson ximoyasi, inson kamoloti uchun kurash, insonlarning axloqiy fazilatlarini takomillashtirishdan iboratdir. Demak, Oliy Iloh Ahura Mazda va uning yordamchilarining nomlari mazmuniga e'tibor bersak, insonning azaliy orzu-umidlari va qadriyatlarini ifoda etuvchi tushuncha va tasavvur yotadi.

Zardushtiylikda insonlarga foydali bo'lgan, ularning tirikchiligi uchun zarur bo'lgan barcha jonivorlar, o'simliklar, havo va zamin, suv va olovning o'z ilohalari bo'lib, ular o'zlari homiylik qiladigan narsalarni Axrimaning yovuz kuchlaridan himoya qilib turadi. Masalan, bulut, havo, suv, zamin, hayvon, o'simliklarning ilohalariga quyidagilar kiradi. Savanhi -hayvonlar ilohasi, Vyasya -urug' - qabila, qishloq ahli ilohasi, Frodot - Fshova - mayda hayvonlar, ilohasi hisoblanadi.

Farishta Asha homiy bo'lgan xonadonlarda Baxt tantana qilib, taqdir kulib boqadi. Rashn esaadolat hakami, rostlik, haq va haqqoniyat ilohasi sifatida moddiy olamni yomonlik, yolg'on va razolat, ablahlik va jaholatdan qutqarish uchun bu qabohatlarning asosiy sababchilari bo'lmish devlarga qarshi kurashadi...

Zardushtiylikda turli xalqlar, qavmlar o'rta sidagi do'stlik, qardoshlik, tinchlik to'g'risida ham fikr yuritiladi. Masalan, Aryaman do'stlik, qardoshlik va osudalik ilohi sifatida talqin qilinadi. Aryaman so'zining asl ma'nosi ham do'st-birodar ma'nolarini anglatadi.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra olam qarama-qarshi kurashuvchi kuchlar makonidir. Qarama - qarshi kurashuvchi tomonlar o'zining kurashish imkoniyatiga ko'ra tabaqalashtirilgan holda bosqichma-bosqich joylashtirilgan.

Zardushtiylik o'zigacha bo'lgan qadimgi dinlardan yakka xudo - Ahura Mazdaga e'tiqod qilish g'oyasini ilgari surganligi bilan farqlanib turadi. Ahura Mazdaning barcha narsalarni yaratganligi va barcha narsalar ustidan hukmronlik qilishi yagona xudo e'tiqodidan dalolatdir. Lekin ezgu va yovuz kuchlar o'rta sidagi kurashda boshqa ikkinchi darajali ilohlarning qatnashishlari yakka xudo e'tiqodining ko'p xudolik e'tiqodi bilan almashinuvi olib keladi. Yakka xudolikka

bir tomondan qabilachilik turmushini kechirayotgan kishilarni ishontirish ancha mushkul bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, yakka xudolik g'oyasining nazariy jihatlari hali shakllanib ulgurmagan edi. Chunki yakka xudolik g'oyasini qabul qilishga kishilarning ong va tafakkuri tayyor emas edi.

Dunyo bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ezgulik va yovuzlikning kurashi sifatida talqin qilinadi. Bu qarama-qarshilik dunyoning azaliy mavjudligidan dalolatdir. Go'yo ezgu va yovuz kuchlar o'rtaсидаги kurash dunyoning azaliyligi va taraqqiyoti sharti bo'lib ko'rindi. Qarama-qarshi tomonlarning kurashi ezgu va yovuzliklarning asl mohiyatini ochib beradi. Otashparstlarga olam va odam, yaxshi va yomon,adolat va adolatsizlik, ezgulik va qabohat o'rtaсидаги farq, ularning tabiat, jamiyat va inson hayotiga ta'siri va oqibati to'g'risida xabar beradi. Qarama-qarshi kuchlar borliqning kattadan-kichik zarrachasida mujassam, tirik va notirik tabiatni o'z domiga tortadi. Barcha voqeа va hodisalar, tabiat va jamiyat va inson ana shu kurashlar birligi va iskanjasida. Shu tufayli zardushtiylik qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni to'g'risidagi diniy-falsafiy ta'limot hisoblanadi.

Zardushtiylar tasavurriga ko'ra Ahura Mazda va boshqa ezgulik xudolari Xoro deb nomlanuvchi tog'dagi Olqish xona, ya'ni maqtovlar uyi, (jannatning nomi) da yashaydilar. Tavfiqli, ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amallar egalari vafot etganlaridan so'ng ana shu jannatmakon joyda ilohlar bilan birgalikda yashaydilar.

Zardushtiylikda ham inson vafot etganidan so'ng jannat yoki do'zax uning makoniga aylanadi degan tasavvur mavjud bo'lib, inson jannatdan umidvor qilinadi. Inson vafot etganidan so'ng uning ruhi bilan hisob-kitob qilinadi. Haqiqat ilohi Rashn marhumning o'tkinchi dunyodagi qilmishlarini tarozigra tortib ko'radi. Agar jannat ato qilingan bo'lsa, Xoro tog'idagi xudolar yashaydigan makon – Olqish xonaga yuboriladi. Agar do'zax ato qilingan bo'lsa, Axriman va yovuz kuchlar makoni bo'lgan abadiy muzlik – do'zaxga tashlanadi. Ajrim davrida ahdu-paymon ilohi Mitra va itoatkorlik ilohasi Sraxoshalar ham qatnashadilar, deb hisoblangan.

Zardushtiylikda insonga ezgulik va yaxshilik keltiruvchi kuchlar bilan birga yovuzlik va yomonlik keltiruvchi kuchlar to'g'risida, ularning inson va butun olamga keltiruvchi yomonliklari to'g'risida ham to'xtalib o'tiladi. Masalan, Bod-shamol ilohi to'g'risida quyidagi rivoyat beriladi. Go'yo Bod dastlab suvni bulutlar shaklida turli mamlakatlarga, odamlar makon qurgan hududlarga yo'llab turgan. Keyinchalik yovuz kuch - devlar Bodni afsun qiladilar. Bod o'zining kuchiga nihoyatda erk beradi, mendan ko'ra kuchliroq va qudratliroq jonzot yo'q deb hisoblaydi, yo'lida uchraydigan barcha narsalarni ag'dar-to'ntar qiladi, yerusko'kni zulmat qoplaydi. Girshasp (Avesto"dagi qahramonlardan biri) uni chilparchin qilib bo'yso'ndiradi va Ahura Mazda amrini bajarishga qasam ichdiradi. Albatta Girshasp Bodni bo'ysundirgani bilan undagi ayrim ziddiyatli unsurlari, otdan tushsa ham egardan tushmasdan, o'ziga bino qo'yib yuraveradi, va hiylagar devlar domiga ilinadi, hamda ularning xizmatida bo'ladi. Devlar izmiga tushib qolgan yelvizak, devlar jodusi ta'siri ostida kishilarni turli oyoq-bo'g'im kasalliklariga duchor qiladi. Shuning uchun ham yelvizak natijasida paydo bo'lувчи kasalliklar - "bod" va "dard" (dard tegdi) yelvizakning odamlarga keltiradigan zarari, deb tasavvur qilingan.

Demak ezguliklar, ya'ni ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amallarning mohiyatini anglab yetmagan hayot mashaqqatlariga bardosh bera olmagan, uning yengil-yelpi yo'llarini tanlagan. O'z hatti-harakatlari (noaxloqiy hatti-harakatlari) bilan nafaqat insonlarga, balki butun olamga ziyon - zahmat yetkazuvchi kimsalarning yovuz kuchlar tarafiga o'tib olishi va axloqiy tubanlik hamda tanazzul botqog'ining kengayishiga yordam berishi, buning natijasida ezgu kuchlarning aziyat chekishi masalalari zardushtiylik dinining axloqiy mohiyatini tashkil etadi. Shuning uchun ham "Avesto"da insonning o'z-o'zini ehtiyyot qilishiga da'vat nihoyatda kuchli. Yovuz kuchlar ta'siriga tushmasdan o'z-o'zini asrash insonning buyuk insoniylik qudrati. G'azabla nafs - hirsga berilish - yovuzlik belgisi. Zero, yovuzlik - aqlli mavjudot - insonga xos bo'limgan xislat.

Asrlar o‘tibdiki “Avesto”da olg‘a surilgan bunday ezgu niyatlar, ezgu kalom va ezgu amal hamon barcha insonlarni ezgulik tomon chorlab, ularni ruhan poklab, yuksak ma’naviylik tomon yo‘llab kelmoqda.

Zardushtiylik axloq-odobi hayvonlarga nisbatan ham beshafqat bo‘lishni qat’iyan man etadi. Hayvonlarni kaltaklash va qiyash – gunoh deb hisoblanadi. Kishilarni foydali hayvonlar haqida g‘amxo‘rlik qilishga, ularga o‘z vaqtida ovqat berib turishga, yirtqich hayvonlardan qo‘riqlashga da’vat etadi. “Avesto”da tozalik, poklikka alohida e’tibor qaratilgan. Hovuzdan yuvilmagan, iflos ko‘zada suv olgan kishi besh darra bilan jazolangan. Inson yashaydigan xonada yuvinish, poklanish qat’iyan qoralangan.

Yuqorida qayd etilganlardan ko‘rinadiki, mazkur tarixiy asarda bizning zamonda tobora muhim ahamiyat kasb etib borayotgan ma’naviy muammo tabiatni asrash masalasiga ham katta ahamiyat berilgan. Bu o‘ta muhim muammoga e’tiborni qaratib Islom Karimov: “Avesto”da borliqning yaxlitligi va bir butunligi, inson hayotining tabiat bilan uyg‘unligi masalasi odamning ruhiy olamiga chambarchas bog‘liq holda ko‘rsatilgani ko‘p narsani anglatadi. Bu holat insonning ma’naviy dunyosini shakllantirishda atrof-muhit qadim zamonlardan buyon qanday kuchli ta’sir o‘tkazib kelganiga yana bir bor e’tiborimizni jalb qiladi”,<sup>1</sup>-deb aytgan edi

“Avesto”da naslning pokligi, tozaligiga ham alohida e’tibor berilgan, qattiq nazorat qilingan, qarindosh-urug‘, aka-ukaning quda-anda bo‘lishi qoralangan.

Hozirgi meditsina fani aka-uka, yaqin qarindoshlar o‘rtasidagi qudachilik munosabatlari kelajak avlodning sog‘lom, to‘la-to‘kis bo‘lib tug‘ilishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini to‘liq aniqlagan. Buni esa bizning ajdodlarimiz allaqachon aniqlaganlari hozirgi zamon kishisini lol qoldiradi. Qolaversa, yaqin kishilarning nikoh masalalarida ma’naviy jihatlar ham borki, bunga inson qalbi yo‘l bermasligi kerak.

Ko‘rinadiki, Markaziy Osiyoda keng tarqalgan qadimiylardan zardushtiylikda oila va nikoh masalalari, inson muammosiga katta ahamiyat berilgan. Insonning

---

<sup>1</sup> Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008, 32- bet

jismoniy va ma’naviy pokligi Zardushtiylik axloqining eng qadimiy talablaridandir. Oila va nikoh yaratuvchining talabiga mos kelganligi bois uni buzish ta’qiqlangan. Agarda oilada er yoki xotin axloqsizlik, ya’ni buzuqchilik gunohi sodir etsa, unday kishilar tayoq bilan jazolangan. Shu orqali oila mustahkamligi uchun kurashganlar.

Zardushtiylik ta’limotidan ko‘rinib turibdiki, Sharqda qadimdan oila muqaddas hisoblangan. Uni mustahkamlab, darz ketishiga yo‘l qo‘ymaganlar. Zardushtiylikda qabristonlar aholi turar joyidan chetda, tepalik joyda bo‘lishi kerakligi, u yerga mevali daraxt o‘tkazish, o‘sirish mumkin emasligi, archa, qayrag‘och kabi mevasiz daraxt o‘sirish kerakligi ta’kidlangan. “Avesto”da aholining ko‘payishiga ham ahamiyat berilgan. Qasddan erga chiqmaydigan qiz qopga solinib, 50 darra urilgan. Qasddan uylanmagan yigitga ham 50 darra urilgan va beliga temir kamar bog‘lab yurish buyurilgan.

“Avesto”da qadimgi tabiblarning qasamyodi va tabobat ramzi ilon va jom berilgan. Demak tabib qasamyodi va ramzi Gippokratdan emas, balki bizdan boshlangan. Bu ham bizning ma’naviyatimiz qadimiyligini ko‘rsatuvchi dalillardan biridir. “Avesto”da ma’rifatni, ilm va hunarni egallash va uni boshqalarga o‘rgatish kerakligi ham uqtirilgan.

Xulosa shuki, “Avesto” kitobida ajdodlarimizning necha ming yillik ma’naviy merosi izlari o‘z aksini topgan. Unda yovuzlik, johillik, zo‘ravonlik, tuhmat kabi yomon illatlar qoralanadi. Sof ko‘ngilli bo‘lish, hiyonat qilmaslik, savdoda bir-birini aldamaslik, haqorat qilmaslik, mehnatsevarlik kabi ma’naviy fazilatlar targ‘ib etiladi.

Bu qadimiy merosni o‘rganish, undagi umumbashariy va abadiy qadr-qimmatga ega ma’naviy g‘oyalarni targ‘ib etish xalqimizni, xususan yoshlarimizni ma’naviy barkamol etib tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, qadim ajdodlarimizning diniy e’tiqodi hisoblangan zardushtiylik va uning muqaddas kitobi “Avesto” ajdodlarimizning tabiat va jamiyat, olam va odamga bo’lgan munosabatlari, orzu-armonlari, ruhiy

kechinmalari, diniy, falsafiy, axloqiy va badiiy tafakkurini o'zida jamlagan milliy ma'naviy qadriyatlarimizning majmui hisoblanadi.

## **2.2. Zardushtiylikda inson ma'naviy qiyofasining talqini.**

Zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" insoniyatning buyuk ma'naviy qadriyati majmui tarzida inson va insoniyatning manaviy qiyofasini o'zida mujassamlashtiruvchi manbadir.

Zardushtiylikda insonning o'zini qurshab turgan tabiat va o'zi yashayotgan jamiyatga bo'lgan munosabatlarini falsafiy, ma'naviy -ruhiy, axloqiy va badiiy tafakkur jihatidan belgilab beruvchi mezonlar majmui hamdir.

Zardushtiylik odam qalbi va ruhiyatida paydo bo'lувчи ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik, haqlik va nohaqlik, vijdon va vijdonsizlik, andisha va andishasizlik, sahiylik va baxillik, nomus va benomuslik, ochiqko'ngillilik va ichiqoralik, mehnatkashlik yoki yalqovlik kabi axloqiy me'yorlarnig o'zaro kurashi muammolarining yechimini topib berishga qaratilgan buyuk ma'naviy - madaniy merosdir.

Zardushtiylikda eng avvalo inson, uning hayoti, aqli va tafakkuri, ongli mavjudot sifatida yaxshi va yomonni, ezgulik va yovuzlikni,adolat va adolatsizlikni bir- biridan ajrata olguvchi mo'tabar zot ekanligiga alohida urg'u beriladi.

Agar "Avesto"ning qismlarga bo'linishi va ularning mazmuniga e'tibor bersak, barcha qismlar inson ma'naviy dunyosini u yoki bu darajada qamrab olganligini ko'ramiz.

1-qism. "Yasna" - hamdu - sano, munojat va qurbanlik duolari to'plami. "Yasna"ning' 17 bobi gotlar - alqovlar bo'lib, unda zardushtiylik axloqining asosi hisoblanuvchi "ezgu fikr, ezgu kalom va ezgu amallar" madh qilinadi.

2-qism "Yasht"lar asosan oliy iloh Ahura Mazdaning eng qutlug' 72 sifati va ezgulikka xizmat qiluvchi xudolar madhidan iborat. Ahura Mazdaning 72

sifatlariga e'tibor berilsa, insoniyat tomonidan azal-azaldan orzu qilib kelingan axloqiy ideallar qamrab olinganligini ko'ramiz.

3-qism. "Vandidod" - yomonlik, jaholat va razolatlar himoyachilari bo'lган devlarga qarshi kurash qonunlari majmuasi.

4-qism. "Visparad" - ezgu narsalar va ezgu kuchlarni olqishlash to'plami.

5-qism. ""Kichik Avesto" - zardushtiyarning kunduzgi toat -ibodat, duo va alqovlari to'plami.

Demokratik insonparvar jamiyat qurilishida avlod-ajdodlarimizning ma'naviy - axloqiy va huquqiy qarashlarining qay tarzda shakllanganligini bilish nafaqat milliy o'zligimizni anglashimizda, balki axloqiy va huquqiy tasavvurlarimizning kengayishi, azaliy axloqiy fazilatlarimizning mukammallahuvuda muhim rol o'ynaydi.

Insoniyat jamiyatining turli bosqichlarida ilm olish va unga bo'lган munosabat aql-idrokli insonning asosiy fazilati hisoblangan.

Aqli va ongli inson borki o'zini qurshab turgan tabiatning sirli hodisalarining asl mohiyatini anglab etishga intilgan. Har bir ilohiy deb qabul qilingan kitoblar, pandnomalar va nasihatnomalar, xalq og'zaki ijodi va boshqa ko'plab yozma manbalar insonni faqat bilimgina yetuklik va komillik darajasiga olib chiqadi, deb hisoblaydi. "Avesto"da ham har bir otashparastning bilim olishi farz deb hisoblanadi.

"Avesto"da Ahura Mazda ezgulikning tantanasi uchun xizmat qiluvchi insonlarga aql ato etgan. Aql - idrokni ato etishdan maqsad esa, bir tomonidan oliy ilohni idrok etish, ikkinchi tomonidan hayotda yashash yo'llarini o'rganib olish, uchinchi tomonidan o'zi duchor bo'ladigan hayot sinovlarini yengib o'tish, to'rtinchi tomonidan esa, yovuz kuchlar va yovuzliklarning mohiyatini anglab yetmoq uchun ham bilish imkoniyatlarini inson aql-idrokiga joylay olgan. Shuning uchun ham insonning butun umri bilim olishga safarbar etilgan. Bilim olishga intilmoq esa eng ezgu amaldir.

Ahura Mazda tomonidan homiylik qilinadigan ezgu kuchlar, hayvonlar, suv, olov, havo va zaminga bo'lgan munosabatlar insoniy munsabatlarning (axloqiy – hulqiy) oddiydan murakkablikka tomon o'sib borishini ko'rsatadi.

Zardushtiylikda inson va uning yaratuvchilik mohiyati (fazilati) oliv ilohga ibodat qilishdan ham ko'ra a'loroq deb hisoblanadi. "Avesto"da yozilishicha, inson yerni obod qilsa, unum – baraka, foyda keltirsa xudoga ibodat qilishning eng oliv darajasini bajargan bo'ladi. Shu boisdan ham zardushtiylikdagi to'rt muqaddas narsalardan biri - yerga ishlov berish, yerni parvarishlar, dehqonchilik, ya'ni, inson va hayvonlarning yashashi uchun zarur bo'lgan oziq- ovqat yaratish eng oliv darajadagi ibodat deb hisoblangan.

"Avesto"da insonning tirikligi, insonning insoniylik qiyofasi va abadiyligi ezgu hayotiy ehtiyoj va orzu - umidlarining mavjudligi bilan belgilanadi. Chunki ezgulik tangrisi tomonida turuvchi inson o'z umri davomida ezgulik sari intilishi, ezgu ehtiyojlarni qondirishi uchun mehnat qilishi, o'z hayotini ezgu - orzular va umidlar asosiga qurishi zarur. Ezgu orzu-umidlarla yashovchi insongina o'zining abadiyligini yaratadi. O'zining butun vujudini, hayotini ezgulikka baxshida etgan insongina ezgulik, yaxshilik,adolat va haq (Ahura Mazda) tomonida turadi, komillik darajasiga ko'tarila oladi. "Avesto"da butun olamdagи narsalar, hodisalar, jarayonlar va boshqa odamlar to'g'risida faqat yaxshi fikr qiladigan (ezgu fikr), ular to'g'risida yaxshi so'zlaydigan (ezgu so'z) va o'zining butun hatti-harakatini faqat ezgu ishlarga - inson, jamoa va umumbasharyatning ravnaqi, yaxshi hayot kechirishga baxshida eta oladigan insongina komillikka erisha olishi ko'rsatiladi.

Insoniylik burchining, ya'ni, har bir inson axloqiy kamoloti darajasining bu shaklda ko'rsatilishi zardushtiylik axloqiy ta'limotining eng katta yutug'i edi. Inson axloqiy tamoyilining bu darajaga ko'tarilishi insoniyat umrining hayotbaxshligidan dalolat beradi.

Zardushtiylikda ikki qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi kurashda Ahura Mazda va uning e'tiqodiga sodiqlik eng muhim insoniy fazilat ekanligi ko'rsatib o'tiladi. Xiyonatkorlik eng katta gunohlardan biri deb sanaladi. Xiyonatkorlarni oliv iloh

Ahura Mazda doimo kuzatib yurishi, ularga na kuch-quvvat, na iqbolu-baxt va na nazru-niyozlar baxsh etmasligi ta'kidlanadi:

Xiyonat qilganni o'z kalomiga.

Ular kuzatadilar bu xil jonlarni,

Ular taniydir bu xil kaslarni,

Qachonki bu jonlar birlamchi bo'lib

Xiyonat qilsalar ahdu vafoga.

Kuzatadilar ular mudom, har yerda

O'z qavmiga zomin bo'lган kaslarni,

Xiyonat qilganni o'z kalomiga,

Kim bu subutsizlar, kazzoblar bois<sup>1</sup>

Zardushtiylik dinida tavfiqli, o'z ahdida sobiq turish chin insoniy fazilatlardan biri sifatida talqin etiladi. Subutsizlik o'z ahdida turmaslik, qat'iyatsizlik qattiq qoralanadi. Subutsiz va betavfiq kishilar yovuzlik xudosi Axrimanga xizmat qiluvchi odam qiyofasidagi devlar deb sanalgan. Subutsizlik va betavfiqlik turli xil kelishmovchiliklar, va hatto urush janjallarni keltirib chiqarishning asosiy sabablaridan biri deb hisoblangan. Ko'p hollarda suvli joy va yaylovlarni bo'lismay paytida qabilalar o'rtaida kelishmovchilar paydo bo'lган. Bu kelishmovchiliklar ayrim qabila vakillarining o'z manfaatini boshqa qabila manfaatlaridan ustun qo'yish natijasida kelib chiqqan. Natijada otashparastlar o'rtaida subutsiz va betavfiq kishilarga jazo beruvchi ma'bud to'g'risidagi tasavvurlar vujudga keladi. Bu vazifani eng mashhur ilohlardan biri Mitra bajaradi deb hisoblaganlar. Otashparastlar nazdida Mitra tavfiqli, o'z ahdida sobit turuvchi kimsalarni himoya qilib, betavfiq subutsiz, xiyonatkor va yolg'onchi kimsalarga qarshi ayovsiz kurash olib boradi.

Biz Mitraga topinamiz . . .

---

<sup>1</sup> T. Mahmudov, "Avesto" haqida T., Sharq. 2000 yil 53- bet.

Ul so'zida sobitlarni,  
Lafzi halol kimsalarni  
Falokatdan saqlagaydir,  
Halokatdan saqlagaydir  
Asra bizni falokatdan,  
Asra bizni halokatdan,  
Aldanmas Mitra.<sup>1</sup>

Mitra dastlab urug' -qabilalar o'rtasidagi ahd - kelishuvlarni nazorat qiluvchi xudo sifatida qabul qilingan bo'lsada, keyinchalik yolg'onchilik, subutsizlik va xiyonatkorlikka qarshi ayovsiz kurash olib boruvchi jangchi timsoli bo'lib olgan. Bir muncha vaqt o'tib Mitra Quyoshni yovuz kuchlar hujumidan himoya qiluvchi iloh makrini ola boshlagan. Vaqtlar o'tishi bilan Mitra aynan Quyosh ramziga aylangan va nafaqat Sharq xalqlari, balki Yevropa xalqlari tomonidan e'zozlanadigan ma'budga aylangan. Mitraizm diniy e'tiqodi sifatida keng yoyilgan.

Iymon va e'tiqod masalasi inson ma'naviy qiyofasining asosiy mezonlaridan biri sifatida "Avesto"da o'z ifodasini topgan.

Iymon va iymonsizlik, e'tiqod va e'tiqodsizlik har qanday diniy ta'limotning asosiy talabi hisoblanadi. Iymonli - e'tiqodli kishilar insoniyat jamiyatining asosiy ustunlari hisoblanadi. Iymon va e'tiqodsizlik ezgulikni yovuzlikdan, yaxshilikni yomonlikdan, adolatni nohaqlikdan poklikni nopoklikdan, halolni xaromdan, mehrni shavqatsizlikdan, insofni noinsoflikdan, vafoni xiyonatdan ajratishga yordam beradi. Iymon barcha dinlarning asosiy ustuni bo'lganidek, zardushtiylikda ham inson e'tiqodining asosini tashkil etadi. Fikr sofligi, so'zning sobitligi va amallarning insoniyligi zardushtiylik dinida iymon tushunchasining uch tayanchi hisoblanadi.

Zardushtiylik iymon - e'tiqodida ahdu-paymon insonning eng muqaddas fazilati- inson qavmining qasamyodi sifatida talqin etiladi. Ahdu - paymonga

---

<sup>1</sup> „Avesto“. Tarixiy- adabiy yodgorlik. T:, Sharq. 2001 y. 186- bet.

sadoqat tushunchasi oddiydan murakkablikka tomon o'sib boradi. Ota bilan bola o'rtasidagi ahdu-paymon ahdning oddiy ko'rinishi sifatida tahlil etilsa, el-elat o'rtasidagi ahdu-paymon ming karra muqaddas, Oliy iloh Ahura Mazdaga bo'lgan ahdu-sadoqat yuz ming marta muqaddasligi tarannum etiladi.

Zardushtiylikda mehnat qilmaydigan, birovlarning mehnati evaziga kun ko'radigan, odamlarga foydasi tegmaydigan, tekinxo'r, ishyoqmas odamlar qattiq qoralanadi. Dehqonchilik bilan shug'ullanmagan, zamin- yerga ishlov bermagan odam xor-zor bo'lishini, odamlar nafratiga duchor bo'lishi ta'kidlanadi:

Ey, Sipiytmon Zardusht!

Kimda-kim zaminni chap va o'ng qo'l bilan, o'ng va chap qo'l bilan shudgor qilmasa, zamin unga shunday deydi:

Ey, mard! Ey, meni chap va o'ng qo'li bilan, o'ng va chap qo'l bilan shudgor qilmagan zot!

Sen begonalar eshigi ostonasida non istovchilar bilan birga bo'lursan. Ko'zlarining yo'l ko'radi. Ular seni eshigi ostonasidan haydab yuboradilar<sup>1</sup>.

Insoniyat tomonidan qoralanib kelingan o'g'rilik, yo'lto'sarlik, ahdiga vafo qilmaslik, jodugarlik bilan shug'ullanish zurdushtiylikdagi katta gunohlardan hisoblangan. Bu kabi jinoyatlar bilan shug'ullanganlar Axriman ta'siriga tushib odam zotiga katta- katta talofatlar keltiruvchi devmonand kishilar- "kayazalar" deb yuritilgan.

Zardushtiylik dinida xonadon nihoyatda ulug'langan va muqaddas hisoblangan. Xonadonning osudaligi va farovonligi eng buyuk ne`mat hisoblahgan. Shu bois har bir xonadon sohibi Ahura Mazda va boshqa ezgu kuchlarga o'zi va xonadoni a`zolarining tinchligi vaosudaligi, farovonligi va mehr-oqibatlilagini tilab, yaxshilik va ezguliklarni ato qilishini o'tinib so'raydi.

... Bu xonadonga yaxshiliklar nasib etib, farru furug'i ziyoda bo'lsa va badhohlar qarshida poydorlik qilsa!

---

<sup>1</sup> G' Soatov. Zardushtiylik madaniyati va ma`naviyati. Qarshi. "Nasaf" nashriyoti. 2004,12-bet.

Shoyadki bu xonada itoatgo'ylik itoatsizlikdan; murosa murosasizlikdan; hoksorlik kibrdan; to'g'ri so'z yolg'ondan; Ashah- Haqiqat duruj (kazzob) ustidan muzaffar bo'lsa...

Shuningdek zardushtiyalar o'zlarining xonadonlarining tinchligi va osudaligi, farovon turmush kechirishlarida yordam berishni o'zlarining o'tmis ajdodlari ruhlarida ham iltijo qilib so'raganlar va ularning ruhlariga atab duolar o'qishni ham unutmaganlar. Eng ulug' kishilar, pokiza zotlar, ajdodlar sha'nini eslash zardushtiylikda o'tganlarni e'zozlash tarzida beriladi, inson xotirasining buyukligi "Avesto"ning markazidan joy olgan."Dahmon duolar" ("Pok, ezgu duolar"), ya'ni "Avestodagi eng mashhur duo hisoblangan. "Dahmon duolar" marhum vafotining to'rtinchi, o'ninchi, o'ttizinchi va yili to'lgan kunda o'qilgan:

Zardushtiylik ta'llimotidagi Insonning ma'naviy fazilatlaridan biri – o'z gunohlari va qilmishlarini tushunib yetib ulardan pushaymon bo'lishi va tavba qilishidir. Shu boisdan har bir otashparast oliy iloh Ahura Mazdaga o'z gunohlaridan qattiq pushaymonligini izhor qilgan:

-Ey, iloh Hurmuzd!

Men barcha gunohdarimdan pushaymonman va patit qilaman (qaytaman).

Men bu dunyoda aytgan yo qilgan, yohud ko'nglimning tubida kechgan har nechuk qabih andisha, qabih so'z va qabih amallarimdan pushaymonman.

Men uch narsadan - qabih andisha, qabih so'z va qabih amaldan pushaymonman va patit qilaman (qaytaman).

Demak insoniy fazilatlarning buyukligiga ishonch-otashparastlik e'tiqodining asl mohiyatini tashkil qiladi:

...Men ezgu andisha bilan andisha yuritganga ishonaman:

Men ezgu so'z so'zlaganga ishonaman.

Har bir dinda bo'lganidek, zardushtiylik dinida ham mazdaparastning bilibilmay qilgan gunohlarini bo'yniga olishi va pushaymonligi, Oliy Ilohu Ahura Mazda va uning yordamchi mabudalaridan astoydil kechirim so'rashi,

gunohkorning o'z gunohlaridan forig' bo'lishi tarzida qabul qilingan. Bu azaliy axloqiy an'ana – „Egilgan boshni qilich kesmas“ udumi Zardushtiylik diniga e'tiqod qilgan davrlardanoq mavjud bo'lганligini ko'rsatadi.

Otashparastning o'z gunohlaridan pushaymonligi va kechirim so'rashi asosan belbog' bog'lash marosimi davrida bajarilgan. Bir kecha kunduzda bir necha marta belbog' bog'langan va iqror (pushaymonlik) duosi o'qilgan.

Belbog' oq qo'y yungining yetmish ikki tolasidan iborat bo'lgan. Albatta bu sonda (raqamda) ramziy ma'no mavjud bo'lgan. 72 raqami Oliy Iloh Ahura Mazdaning 72 sifatiga bog'liq raqamdir.

„Qur'oni Karim“ dagi singari „Avestoda“ ham inson ma'naviy axloqiy fazilatlari beriladi. Mazkur axloqiy fazilatlarga intilgan kishilarga baxt-saodatga muyassar bo'lishi ta'kidlab o'tiladi. Ikkinchidan, „Avesto“ da ham odamlar uchun ideal hisoblangan xudoning sifatlari, so'ngra ikkinchi darajal ilohlar va payg'ambar Zaratushtraning axloqiy - ma'naviy fazilatlari ko'rsatib o'tiladi. Masalan, Quron Karimda Ollohning 99 sifati berilsa, „Avesto“ da Ahura Mazdaning 72 nomi zikr qilinadi.

Shu boisdan zardushtiylikda har bir otashparast Ahura Mazdaning sifatlarini o'zining barcha hatti-harakatlari uchun dasturilamal deb hisoblangan va bu nomlarga sodiq qolishga unga isnod keltirmaslikka harakat qilgan.

Zardushtiylik e'tiqodiga ko'ra Oliy Iloh ismlarini to'la-to'kis zikr qilish orqali iblis, dev va boshqa yovuz kuchlar ta'siridan xolos bo'lishi mumkin.

Bu belbog' ayol mo'bad (ruhoni) tomonidan to'qilgan. O'n ikki toladan iborat oltita ip rishta, jami yetmish ikki tolali kamarbad - "Avesto"ning muhim qismi bo'lgan yetmish ikkita hot, o'n ikki oy va yil davomida mazdaparastlar nishonlaydigan oltita diniy marosimiga ishora qiladi. Oltitalik rishta yohud ipni kamar atrofida uch marta aylantirib bog'lashadi. Uchlik mazdaparastlar dinining asosi bo'lgan ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalga ishora qiladi. Rishta kamar atrofida ikkinchi marta aylantirilganda oldindan ikki tugun qilinadi. Uchinchi oxirgi marta aylantirilganda esa orqa tomondan ikkita tugun tugadilar. "Bun-

dahishn"da to'rt tugun shunday sharhlanadi. Birinchi tugun yakka va yagona yaratguvchining borligiga ishora, ikkinchi tugun mazdaparastlik dinining barhaq va Ahuraviy ekanligiga ishora, uchinchi tugun Zardushtning payg'ambarligiga iqrorlik belgisi; to'rtinchi tugun ezgu niyat, ezgu so'z va ezgu amalga ishonch belgisi.

Kamarband maxsus diniy ko'yvak-sudra ustidan bog'lanadi. Har bir zardushtiy o'n besh yoshga to'lgach balog'at nishonasi va mazdaparastlar safiga qo'shilganligining alomati sifatida sudra kiyib, kamarband bog'laydi. Kamarband bog'lamoq har bir zardushtiy hayotidagi eng muhim voqeа bo'lganligi uchun u maxsus marosim vazifasini o'tagan<sup>1</sup>.

Bir kecha kunduzda belbog'ning bir necha marta bog'lanishi mazdaparastning gunohkor ekanligidan pushaymon bo'lib, "qayta-qayta tug'ilishi" ma'nosini anglatadi.

Belbog' bog'lash bir kecha kunduzda 5 martadan kam bo'lмаган. Belbog'ni asosan: a) uyqudan turganda; b) hojatdan so'ng; v) namoz o'qishdan oldin; g) tahoratdan so'ng; d) ovqatlanishdan avval bog'lashgan. Uch holatda-hojatdan so'ng, namozdan oldin va tahoratdan keyin belbog' bog'lamaslik katta gunohlardan hisoblangan.

Belbog'ni yorug'lik tomonga qarab tushgacha Sharqqa; tushdan so'ng G'arbga, kechasi esa chiroq yoxud osmondagи oyga yuz burgan holda bog'lashgan. Mazkur qoidalar dastlab quyosh harakati bo'yicha, so'ngra esa olov (chiroqdagi) yoki yorug'lik (oy yorug'ligi) ga qarab bog'langan, albatta quyosh va yorug'likning mukaddasligi hisobga olingan.

Belbog'ni echayotganda Ahura Mazda madh etilib, Axrimanga nafrat o'qilgan.

Shu narsani alohida ta'kidlab o'tish joizki, belbog' bog'lash marosimining ayrim elementlari bizning kunimizgacha yetib kelgan. Buning dalili sifatida

---

<sup>1</sup> G' Soatov. Zardushtiylik madaniyati va ma'naviyati. Qarshi. "Nasaf" nashriyoti. 2004,12-bet.

turmushimizda uchrab turadigan ko'pgina rasm-rusumlar, udumlar, urf-odatlar, marosim va an'analarning genizisiga e'tibor bersak, ularning deyarli barchasi ajdodlarimizning u yoki bu diniy dunyoqarashiga bog'liq bo'lganligini ko'ramiz. Xuddi shuningdek, hozirgi kuniimizgacha yetib kelgan bo'z yigitga (14-15 yoshga yetgan o'spiringa) to'n va do'ppi kiydirib, belbog' bog'lab qo'yish marosimini ajdodlarimizning azaliy diniy e'tiqodi - zardushtiylikdagi belbog' bog'lash marosimiga borib taqaladi. Chunki, zardushtiylikda bolaning 15 yoshga to'lishi voyaga yetgan hisoblanib, to'kis aqlga ega bo'la boshlaganligini, hayot va turmushning ikir-chikirlari va pastu-balandini anglab yeta olishi, ezgulik va yovuzlik, yaxshilik va yomonlik,adolat va adolatsizlikning farqini anglash darajasiga yetganligi, mazdaparastlik e'tiqodiga bo'ysinib, uning talablarini bajara olishi mumkin deb hisoblangan. Shu boisdan har bir voyaga etgan otashparast "Avesto"da ko'rsatilgan "belbog'lash duosini yod olib, marosim rasm-rusumini to'la ado etishi diniy e'tiqod talablaridan biri hisoblangan. Ikkichi tomondan, respublikamizning ko'pgina hududlarida yangi kiyim kiyish paytida kun chiqar tomonga (Sharqqa) qarab kiyinish hanuzgacha saqlanib qolganligi bejiz emas. Hozirgi kuniimizda aksariyat hollarda bayram, sayillar va to'y-tomoshalar nishonlanadigan kuni ertalab yangi kiyim kiyiladi. Yangi libos kiyilayotganda momolarimiz yoki katta yoshdagi onalarimiz yangi kiyim kiyayotgan yosh bola, o'smir yoki bo'z yigitga kiyimni kun chiqar tomonga qarab kiyishni albatta ta'kidlab turadilar. Bu ta'kid tagida azal-azaldan ruhiyatimizda saqlanib kelinayotgan quyosh va uning bir bo'lagi deb hisoblanuvchi olovga bo'lган etiqodimiz ta'siri bo'lishi haqiqatga yaqin.

Onalar o'zining voyaga yetayotgan bolasiga, turmushga chiqishga hozirlik ko'rayotgan bokira qizlarimiz esa bo'lajak kuyovga atab belbog' to'qiganlar. Belbog' albatta yaxshi niyat bilan to'qilgan. Uni to'qish jarayonida faqat ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal nazarda tutilgan. Belbog' bog'lash davrida esa eng yaxshi niyatlar qilinadi, xudodan belbog' egasiga aql-idrok, kuch-kuvvat baxsh etish va orzu-armonlarining ushalishiga yordam berish so'raladi.

Bizning tasavvurimizga ko'ra, zardushtiylik hukmron bo'lgan davrlarda (bundan taxminan uch ming yillar ilgari) belbog'ning oq qo'yning yungidan to'kilishida ham ramziy ma'no mavjud bo'lgan. Oq rang, oqlik - bu musaffolik, soflik, g'uborsizlik va begunohik ma'nolarini anglatgan. Qo'y yungidan to'kilishi esa o'sha davrda ipdan gazlamalar to'qish hali yo'lga qo'yilmaganligini ko'rsatadi. Ipdan gazlama to'qish yo'lga qo'yilgandan so'ng, belbog' ip gazlama hamda shoyi va atlas kabi ipak maxsulotlaridan tikila boshlangan. Qo'y yungidan to'qiladigan dag'al iplar o'rnini ip yoki ipak gazlama atrofiga tikiladigan hoshiyalar, kashtalar egallagan bo'lishi mumkin.

Belbog'ning orqa tomonini hozirgi kunimizgacha uch burchak shakkida belga bog'lashdagi ramziy ma'no - zardushtiylikdagi uch ezgulik: ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal saqlanib qolingan. Chunki bo'y etgan bola va kuyov hayotda faqat ezgulikka, yaxshilikka xizmat qilishi, hayot va turmush qiyinchiliklariga bardosh berishi va uni engib o'tishida mardonlik ko'rsatishi, belbog'ni faqat ezgu ishlar va yaxshiliklar uchun bog'lashi, beli baquvvat bo'lishi nazarda tutiladi.

Bola tarbiyasi muammosi har qanday jamiyat va uning mafkurasi hisoblanuvchi g'oyalar (shu jumladan diniy mafkura)ning asosiy maqsadi hisoblanadi. Zardushtiylik hukmron bo'lgan davr uchun ham bu muammo eng dolzarb muammolardan biri bo'lgan. Shu boisdan "Avesto"da bola tarbiyasi va unda tarbiyachining roliga alohida etibor berilgan. Zero bolaning kelajagi uning tarbiyasiga bog'liq. Chunki yosh avlodning tarbiyasiga alohida e'tibor berish insoniyat uchun eng oliy qadriyat hisoblangan.

"Avesto"da odamlarni yomon yo'lga boshlovchi; yomon ta'sir ko'rsatuvchi tarbiyachilar to'g'risida ham so'z yuritiladi. Yovuz ruhlarning yovuz andisha, kalom va amal vositasida odamlarni aldash za abadiy saodatdan baxramand qilishi to'g'risidan so'z yuritsa, yomon tarbiyachilarning qilmishlari va maqsadi kishilarni solih amallardan bebahra qilish, Ahrimaniy kuchlarga xizmat qiluvchi

devmonand odamlar safini kengaytirishdan iborat ekanligi, hamda ular tarbiyasini ko'rib voyaga etgan kimsalarning qilmishlari to'g'risida fikr yuritiladi.

Yomon tarbiyachi o'z ta'limi bilan ilohiy so'zlarni teskari qiladi va tiriklik idrokini xarob aylaydi. Haqiqatda, u odamlarni rostlikning bebahosidan va Ezgu niyatdan bahrasiz aylaydi.

"Yomon tabiyachi hech qachon hayotingizni tubanlashtirmasin, devparast durvandlar avraguvchi til bilan sizlarni gumroh qilmasin"<sup>1</sup>.

Demak, tarbiya va tarbiyachilarning inson ruhi va tafakkuriga ko'rsatadigan ta'siri, yomon tarbiyachidan ta'lim olgan kishilarning qilmishlari, ularning olam va odamlarga keltiradigan zarari xususida, yomon qilmishlari bilan tanilgan kishilardan yiroqroq yurish zarurligi ta'kidlab o'tiladi.

Har bir otashparastning Oliy Ilohga ibodat qilishining eng yaxshi yo'li insonning o'z mehnati evaziga kun kechirishi, halol mehnat qilishidir. Agar kishi o'z mehnatidan qoniqsa, yer yuzini obod qilsa- bu uning xudoga qilgan eng yaxshi ibodati bo'ladi.

Zardushtiylikda inson ma'naviy qiyofasini belgilab beruvchi mezonlardan biri to'g'rilik va haqiqat yo'liga xizmat qilmoqlikdir. Chunki to'g'ri va haqiqatgo'y insongina kamolotga erishadi. To'g'ri va haqiqatgo'y insonning fikri, kalomi va ishi yakdil bo'ladi. Shuning uchun ham Ahura Mazda egri, nohaq, vijdonsiz va yolg'on so'zlovchi kimsalarni aniqlash, to'g'rilik va haqiqatga xizmat qiluvchi kimsalarni ulardan nafratlantirish va ehtiyyotkor bo'lishlari uchun turli sinovlarga duchor qiladi. Yovuz niyatli, o'z ahdida sobit turmaydigan, yovuzlikka xizmat qiluvchi kimsalarni la'natlab, ularni "ashmug" (gumroh, kazzob, dindan qaytuvchi, ahdidan qaytuvchi), deb ataydi.

Kishilarni to'g'rilik va haqiqat yo'liga chorlab ezgu kuchlarga xizmat qilib, olamni obod qilishga da'vat etadi.

---

<sup>1</sup> G' Soatov. Zardushtiylik madaniyati va ma'naviyati. Qarshi. "Nasaf" nashriyoti. 2004,12-bet.

Komil inson masalasi har qanday jamiyatning ijtimoiy-axloqiy tizimining asl mohiyatini tashkil etadi.

Ma'naviy yetuklik, ya'ni ma'naviy komillik jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. Zero, har qanday jamiyat yuksak taraqqiyot sari intiladi. Yuksak taraqqiyot esa inson qadr-qimmati qaror tapadigan jamiyatdagina tantana qiladi. Qaysiki jamiyatda inson kamolatiga e'tibor berilmas ekan, inson o'z qadr-qimmmatini topmas ekan bunday jamiyatda birlik o'rniga nifoq,adolat o'rniga zulm, birodarlik o'rniga adovat, sahiylik o'rniga xasislik, muruvvat o'rniga baxillik, muhabbat o'rniga nafrat, sabr o'rniga toqatsizlik, tavoze o'rniga kibr- havo, sadoqat xiyonat, havas o'rniga xasad, shavqat o'rniga berahmlik, ezgulik o'rniga yovuzlik qaror topadi va jamiyat ma'naviy inqirozga yo'l tutadi.

Zardushtiylikda mazkur tizim insonlarni ezgulikka chorlash orqali namoyon bo'ladi. Ezgulikka xizmat qilish, uning tantanasi uchun kurashish ma'naviy komillikka erishish yo'li hisoblanadi. "Avesto" da komil inson masalasi, insonni ulug'lash va e'zozlash uni ezgu fikrat, ezgu kalom sohibiga aylantirish, unda Ahura Mazdaning sifatlarini vujudga keltirish va alal oqibat uning Oliy Iloh Ahura mazdaga qo'shilib ketishiga erishish nazarda tutiladi. Ahura Mazda komillik timsoli sifatida olib qaraladi. Chunki unda jamiki ezguliklar, ideal tushuncha va tasavvurlar mujassam;

... Adolatpanoh Ahura Mazda qudratli va shukuhlidir. U ulug'dan ulug'roq, yaxshidan yaxshiroq, go'zaldan go'zalroq, ustundan ustunroq, aqlidan aqlliyoq, yoqimlidan yoqimliroqdir. U poklik yo'lining eng yuqori cho'qqisi, yaxshilikdan xabardor, juda ko'p shodlik bag'ishlaguvchidir. U bizni yaratgan. U bizni bunyod etgan. U bizni tarbiyalagan. U yuksak osmonning eng pok gavharidir.<sup>1</sup>

"Avesto"da ma'naviy barkamollik "farrihmandlik" tarzida qabul qilinadi. "Farrihmandlik" – bu ilohiy ne'mat. Bunga hamma ham erishavermaydi. Kimki

---

<sup>1</sup> A. Qayumov. M. Isxoqov ba boshqalar. Qadimgi yozma yodgorliklar. T. Yozuvchi. 2000 yil. 16 bet.

yaxshilik,adolat, haqiqat va ezgu ishlarga xizmat qilsa ana shu ilohiy ne'matga sazovor bo'ladi, yo'lboshchi bo'ladi, shahriyorlik (umidli olam sardori) maqomiga erishadi,adolat sohibiga aylanadi.

"Avesto"da muqaddas hisoblanuvchi narsalar - suv, olov, yer va havoga zarar etkazgan, odamlar muqaddas sanaydigan jonivorlar va giyohlarga ziyon-zahmat keltirganlar munosib ravishda jazolangan.

Har bir otashparastning farmonlarga bo'ysunishi, ilohiy amallarni so'zsiz bajarishi talab qilingan. Murakkab ibodatlar, axloqiy normalar, huquqiy burch va tartiblarni buzganlarga belgilanadigan jazo va jarimalar "Avesto"ning "Vendodod" qismida beriladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash zarurki, "Avestoda inson va uning ma'naviyati ulug'langan. Insondagi ijobiy fazilatlar ko'klarga ko'tarilib, salbiy hatti-harakatlari qoralanadi. Inson ma'naviy dunyosi talqinida eng avvalo insonning qilmishlari, tabiat va o'zini qurshab turgan olam va odamlarga munosabati, ezgulik va yovuzlikning, yaxshilik va yomonlikning, adolat va adolatsizlikning farqini anglab yetishlari, ezguliklarga xizmat qilishi-yu, yovuz kuchlar mag'lubiyatiga qo'shadigan hissalari hisobga olinadi.

Inson ma'naviy dunyosini ochib berishda uning komilikka intilishi va erishuvi, barcha insoniy fazilatlarni o'zida mujassam etish qudrati, aqli mavjudot sifatida hayot sinovlariga dosh bera olishi, eng qiyin damlarda yovuzliklardan saqlana olish qudratiga alohida e'tibor beriladi.

Zardushtiylikning axloqiy asoslarida inson va uning tashqi muxit, jamiyat va boshqa kishilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari yotadi. Chunki Ahura Mazda insonlarni ezgulikka chorlaydi. Insoniylik tamoyillari va meyorlariga amal qilish kishini kamolot sari yetaklaydi.

## Xulosa

Mustaqillik tufayli mamlakatimizda nafaqat milliy, balki umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma'naviy merosimizni o'rganish imkoniyati yuzaga keldi. Bunga ajdodlarimizning islomgacha ibodat manbai, ma'naviy ozuqasi bo'lib kelgan zardushtiylik va uning muqaddas kitobi hisoblanuvchi "Avesto" ni kiritishimiz mumkin.

Avlod-ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan zardushtillik diniy e`tiqodi umuminsoniy madaniyatning taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan Qadimgi Shaqu G'arb sivilizatsiyalarining, insoniyat tafakkurining yanada rivojlanishiga sabab bo'lган. Bir so'z bilan aytganda, I.A.Karimov ta`kidlaganlaridek: "Eng mo'tabar, qadimgi qo'lyozmamiz "Avesto" ning yaratilganiga 3000 yil bo'lyapti. Bu nodir kitob bundan XXX asr muqaddam ikki daryo oralig'ida mana shu zaminda umrguzaronlik qilgan ajdodlarimizning biz avlodlariga qoldirgan ma'naviy, tarixiy merosidir. "Avesto", ayni zamonda bu qadim o'lkada buyuk davlat, buyuk ma'naviyat bo'lganidan guvohlik beruvchi tarixiy hujjatdirki, uni hech kim inkor etolmaydi"<sup>1</sup>.

Xulosa qilib aytganda,

**1)** Zardushtiylik - dunyodagi eng qadimgi dinlardan biri bo'lib insoniyat madaniyatiga ko'p ta'sir ko'rsatgan. „Avesto“ ning yaratilishi nafaqat Markaziy Osiyo xalqlarining, balki falsafiy tafakkur beshigi hisoblangan Yunoniston, Hindiston, Xitoy falsafiy fikrlarining rivojlanishiga ham ulkan hissa qo`shgan.

**2)** Yevropada zardushtiylik ta'limoti antik davr – qadimgi zamonlardayoq katta qiziqish uyg'otgan. Zoroastr va uning ta'limoti haqida ko'pchilik yunon va rimlik yozuvchilar, faylasuflar va tarixchilar ilmiy asarlar yozgan. Bu esa zardushtiylikning juda ko'p hududlar bo'ylab tarqalishiga olib keldi va juda ko'p asrlar mobaynida o'z ta'limoti bilan inson madaniyati, ma'naviyati va mafkurasining rivojlanishi uchun asos bo'ldi.

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T. 1998, 10-b.

**3)** Zardushtiylik ta`limoti odamlarda yashashga ishtiyoq uyg'otadi, hayotining ma`no-mazmunini, odamiylik fazilatlarini chuqurroq anglab olishlariga, insonlar o'rtaсидаги о'заро hamkorlik va do'stlik rishtalarini bog'lash va mustahkamlahsga chorladi.

**4)** Zardushtiylik o'zidan oldingi turli qabilaviy dinlardan ilg'or g'oyalari bilan farq qiladi. U behuda qon to'kishlar, qabilaviy kelishmivchiliklar, harbiy to'qnashuvlarni qoralab osoyishta hayot kechirishni, mehnat qilib olamni obod qilishga da`vat etadi.

**5)** Zardushtiylikning axloqiy asoslarida inson va uning tashqi muhit, jamiyat va boshqa kishilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlari yotadi. Bu din insonlarni ezgulikka chorlaydi.

**6)** Zardushtiylikda inson va uning ma`naviyati ulug'lanadi. Insondagi ijobiy fazilatlar ko'klarga ko'tarilib, salbiy hatti-harakatlar qoralanadi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib quyidagi **tavsiyalarni** berish mumkin:

**Birinchidan**, Zardushtiylikda yer, havo, suv hamda olov muqaddas hisoblangan. Bu ma`naviy merosimizdan yoshlarda tevarak muhit pokizaligi bo'yicha qayg'urish, ularda ekologik madaniyatni shakllantirishda foydalanishimiz lozim.

**Ikkinchidan**, hozir ham har bir yosh avlodning o'z yurish – turishida, fikru hayolida va hayotiy faoliyatida zardushtiylikning "ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal" g'oyasiga rioya qilishni shakllantirish lozim. Buning uchun esa zardushtiylikning axloqiy va ma`naviy mohiyatini keng jamoatchilikka targ'ib qilish kerak.

Mana shunday muqaddas kitob hech qachon keng jamoatchilik ixtiyoridan chetda qolgani yo'q. Xullas, qadim ajdodlarimiz yaratgan "Avesto" dunyodagi eng qadimiylar, noyob bilimlar xazinasidir.

## ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:***

### ***Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati***

#### **I. Normativ – huquqiy hujjatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston. 2017 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasining 2017-2021 yillarga mo’ljallangan Harakatlar strategiyasi. 7-fevral 2017 yil.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik ozbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. . – T.: “O‘zbekiston”, 2017;
4. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. . – T.: “O‘zbekiston”, 2017;
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. . – T.: “O‘zbekiston”, 2017;
6. Mirziyoyev SH.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. T.O‘zbekiston. 2018.
7. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas - kuch” T. 2008 y.
8. Karimov.I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. T.: 1998 y .

#### **II. Asosiy adabiyotlar**

1. A.Erkayev. Ma’naviyatshunoslik. T.: Ma’naviyat. 1- kitob. 2018. 480-b.
2. “Avesto”. Tarixiy – adabiy yodgorlik. T.: Sharq. 2001 y.
3. A.Qayumov va boshqalar. Qadimgi yozma yodgorliklar. T.: yozuvchi. 2000 y.
4. A. Sa’dullayev. Qadimgi O‘zbekiston ilk yozma manbalarda T.: 1999.
5. Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. 1- T.T:1969 y.
6. F.Sulaymonova. “Sharq va G’arb”. T.: O‘zbekiston. 1997 y.
7. U. Jo’rayev, Y. Saidjonov. Dunyo dinlari tarixi. T.1999.
8. Firdavsiy. Shohnoma. Birinchi kitob. T. 1975 y.

9. T.Maxmudov. “Avesto” haqida. T.: Sharq. 2000 y.
10. A.Erkayev. “Milliy g’oya va ma’naviyat” T.: Ma’naviyat. 2002 y.
11. L.N.Gumilev. Qadimgi turklar. T.: 2007 y.
12. A.Ashirov. O’zbek xalqining qadimiyligi e’tiqod va marosimlari. T.: A.Navoiy nomidagi milliy kutubxona. 2007 y.
13. S.Otamuratov va boshqalar. Ma’naviyat asoslari. O`quv qo’llanma. T.: 2002y.
14. E.Umarov. M.Abdullayev. Ma’naviyat asoslari. T.: Sharq. 2005 y.
15. Sh.Raximov. Ma’naviyat asoslari. T.: 2008 y.
16. G’.Soatov. Zardushtiylik madaniyati va ma’naviyati. “Nasaf” nashriyoti. 2004
17. T. Sa’dullayev. Zaratushtra haqiqatmi yoki aqidami. Muloqot jurnali. 2006y.
18. Mahmudov T. “Avesto” haqida. T.: Ma’naviyat. 2000 y.
19. Urazova R.T. “Zardushtiylikda ma’budalarning funksiyalari va ijtimoiy-tarixiy mohiyati”. Avtoreferat. T.”:2017 y
20. Ergasheva M.X. “Avesto”dagi falsafiy g’oyalarga sinergetik yondoshuv. Avtoreferat. T.: 2017 y

### **III. Internet saytlari**

1. http/ / [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
  2. http/ / [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
  3. http/ / [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
  4. http/ / [www.tsil.uz](http://www.tsil.uz)
  5. [www.superbaza.ru](http://www.superbaza.ru)
- [www.seork.uz/Uzbekistan/Constitution/Constitutionlaw one pkp](http://www.seork.uz/Uzbekistan/Constitution/Constitutionlaw one pkp)